

81

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



НАМАНГАН ДАВЛАТ ДОРИЛФУНУНИ
NAMANGAN DAVLAT DORILFUNUNI



Мунираҳон МУҲАММАДИЕВА
Muniraxon MUHAMMADIYEVA

ЛОТИНЧА ЎЗБЕК АЛИФБОСИНИ
ЎРГАНАМИЗ
(методик қўлланма)

LOTINCHA O'ZBEK ALIFBOSINI
O'RGANAMIZ
(metodik qo'llanma)

НАМАНГАН - 1997
NAMANGAN - 1997

Кўлингиздаги ушбу методик кўлланма лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбоси, кўл ёзма ҳамда босма ҳарф турлари ҳақида маълумот беради. Шунингдек, анъанавий сабоқ усулларидан келиб чиқиб, ҳар бир ҳарфнинг алифбодаги ўрни, ёзилиши, ўқилиши ва бошқа хусусиятлари баён этиладигани, бу нарса алифбо ўрганишда барчага қулайлик туғдиради.

Мазкур тавсиялар лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосини ўрганувчи кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

ЎЗУВЧИ:

Мувирахон МУХАММАДИЕВА,
НамДУ ўзбек тилшунослиги
кафедраси доценти, филология
фанлари номзоди.

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Т. ЁЎМОНОВ,
НамДУ ўзбек тилшунослиги
кафедрасининг мудири, филология
фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган
халқ таълими ходими.

ТАҚРИМЧИЛАР:

Ш. ЭГ. МБЕРДИЕВА, филология
фанлари номзоди, кафедра
доценти Н. УЛУКОВ, кафедра
катта ўқитувчиси.

МУҲАРРИР:

проф. С. НОСИРОВ.

НамДУ филология факультети ўзбек тилшунослиги кафедрасининг 1990 йил 6 февралдаги йиғилишида кўриб чиқилган ва чоп этишга тавсия қилинган.

НамДУ илмий кенгашининг 1996 йил 24 март 18-сонли баённомасида тасдиқланган ва чоп этишга рухсат берилган.



© Наманган Давлат Университети
М. Муҳаммадиева.

І ҚИСМ

МУҚАДДИМА

1993 йил 2 сентябрь ўн иккинчи чақирғқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг “Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг қабул қилиниши, ўз-ўзидан, шу алифбо асосидаги янги ўзбек ёзувига ўтилишини билдиради.

Қонун матнининг асословчи қисмида шундай дейилади: “Ушбу қонун Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосланиб ва ўзбек ёзувининг лотин алифбосига ўтилган 1929-1940 йиллардаги ижобий тажрибасидан келиб чиқиб, кенг жамоатчилик вакиллари билдирган истак-хоҳиш-ларни инобатга олган ҳолда Республиканинг ҳар томонлама камол топиниши ва жаҳон коммуни-кация тизимига қирнишни жадаллаштирувчи қулай шароит яратишга хизмат қилади”.

Лотин алифбоси Ўзбекистон аҳолиси учун янгилик эмас. Кекса авлодга мансуб кишилар 1929- 1940 йилларда қўлланган ўзбек-лотин ёзувини билишади. Кейинги авлодга мансуб кишилар эса мактаб ва олий ўқув юртларида Оврупо тилларини ўрганиш жараёнида лотин алифбоси билан танишганлар.

Ҳозир ўқув юртларида ўқиётган, ўқув юртларини тамомлаганлар, умуман, кенг халқ оммаси лотинча ўзбек алифбосини мустақил равишда ёки турли курслар ва тўғаракларда ўрганадилар. Ушбу қўлланма мана шу тоифадаги кишиларга мўлжаллаб ёзилди.

Республикамизнинг балоғат ёшидаги барча киши-ларни қирилча ўзбек алифбосини яхши билгани, бу ёзувда саводхон бўлганликларни учун, лотинча ўзбек алифбосини ўрганишида бу малакадан таянч сифатида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Шу ниятда қўлланмада лотинча ўзбек алифбоси ҳарфларини қирилча ўзбек алифбосига муқояса қилиб ўргатилади.

1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий қилиш тўғрисида”ги Қонунга 1995 йил июнь ойида Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси қарори билан айрим ўзгаришлар киритилди ва шунга асосан лотинча ўзбек алифбоси 26 ҳарф ва 3 та ҳарфий бирикмадан иборат деб белгиланди. Бу ҳарфлардан тўрттаси (а, о, к, х ҳарфлари) шакл ва вазифалари жиҳатидан ўзбек-кирилл алифбосида айни бир хил. Иккита ҳарф эса (е, р) шакл томондан ўхшаш бўлса ҳам, вазифалари жиҳатидан фарқ қилади, яъни е = э ҳарфини, р = п ҳарфини билдиради (кириллчада).

Учта ҳарф (в, и, у) эса ташқи кўриниши - ёзмадаги шакли кириллчадаги ҳарфларга ўхшайди, ammo вазифаси ва босмадаги кўриниши ундан мутлақо фарқ қилади:

Босмада	Ёзмада	Лотинча алифбоддаги вазифаси
В в		Б б
U u		У у
Y y		Й й (йэ)

Қолган 20 ҳарфнинг шакллари турличадир. Бундай ҳарфлар фақат вазифалари жиҳатиданги бир-бирига таққосланиши, қиёсланиши, яъни муқояса қилиниши мумкин.

Лотин ҳарфлари асосидаги алифбони жорий этиш ўзбек тилининг талабига жавоб берадиган янги имло қоидаларини яратиш учун ҳам имкониятлар берди.

У ёки бу тилга оид алифбонинг ўзгариш ёки ўзгармаслигидан қатъий назар, вақти-вақти билан имло қоидаларига маълум ўзгаришлар киритиш, қоидалар тизимини такомиллаштириши бориши ривожланиб бораётган ҳар қандай тил учун қонуний бир ҳолдир.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, янги имло қоидаларини яратишга фақат лотин ёзувига ўтиш билан боғлиқ ҳолда имлода бўладиган ўзгаришларни белгилаш билангина чекланилмади, балки бу вақтгача ўзбек тили имло қоидаларини такомиллаштириш бўйича тўпланиб қолган муаммоларни ҳам ҳал қилиш масаласига алоҳида эътибор берилди.

Масалан, I. Икки тсзушни билдирувчи ё, ю, я кабилардан воз кечилди. Е ҳарфи эса бошқа вазифани бажаришга ўтди.

Ё, Ю, Я ҳарфлари ўрнига:

1) икки товушни кўрсатганида икки ҳарф ёзилади:
ёв - yov, юз - yuz, ях - yax каби;

2) бир унлини кўрсатганида: а) асосан бир ҳарф ёзилади: стажёр - stajor, люстра - lustra, фляга - flaga каби.
б) сўзнинг талаффузи кескин ўзгариб кетмаслиги учун баъзан уо, уи, уа ҳарфлари ёзилади: боксёр - boksyor, бюро - byuro, славян - slavyan каби.

2. Ъ белгиси:

1) рус тилидан олинган сўзларда ташлавиб, бу белгидан кейин келган е, ю ҳарфлари ўрнига уе, уи ҳарфлари ёзилади: разъезд - razyezd, адъютант - adyutant каби;

2) арабча сўзларда тутуқ белгиси (‘) га алмаштирилади: маъно - ma'no, санъат - san'at каби.

3. Ь белгиси:

1) ундошнинг юмшоқлигини кўрсатганда ташланади: альбом - albom каби;

2) айричи белгиси бўлганда ташланади ва у (й) ҳарфи қўшилади: почталъон - pochталyon каби.

4. Ц ҳарфи ўрнига:

1) сўз бошида, сўз охирида, олд қўшимчадан кейин ва ундошдан кейин s (с) ҳарфи ёзилади: целлофан - sellofan, кварц - kvarts, антициклон - antisiklon, акционер - aksioner каби;

2) бошқа ҳалларда унлидан кейин ts ёзилади: глицерин - glitserin, конституция - konstitutsiya каби.

Қўлланмани ёзишда ана шу айтилганлар тўлиқ ҳисобга олинди.

Халқ такдир билан боғлиқ бўлган алифбонинг такомилли ва тадрижи учун қайғуриш ҳар биримиздан масъулият талаб этади. Лотин ёзуви негизидаги ўзбек алифбосини халқимизга чуқур, атрофлича ўргатиш, уни шу ёзувдан тўла саводхон қилиш учун қайғуриш муқаддас вазифа ва бурчимиздир. Бунга тўла эришиш мақсадида

турли хил йўл-йўриқлар, урғуб ва усулларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эгадир. Мазкур кўлланма ана шундай эзгу мақсад билан тайёрланди. Имкони борича лотин алифбоси асосидаги ўзбек алифбосини ўқувчига тез ва мукамал ўргатиш учун интилинди.

Кўлланмадаги материаллар ҳарфларнинг алифбода жойлашиш тартиби асосида берилди. У дарсларга бўлинган ҳолда берилмади. Чунки уни ўқитаётганда тинглоғчиларнинг савпясп, ўзлаштириши даражаси ҳисобга олинishi керак. Ўқитувчи дарс ўтаётган вақтда қайси ҳарфга қанча вақт ажратиш мумкинлигини мустақил ҳал қилиши мумкин.

Кўлланмадан ҳар бир ҳарф ўтиригач, бажариладиган машқ, ўқиш учун қисқа-қисқа матнлар ҳам ўрин олган. Ҳар бир ҳарфнинг лотин алифбосидаги босма ва ёзма, боши ва кичик кўришишлари тўла ифодаланди. Бу эса ўқувчига уларнинг фарқли ва ўхшаш томонларини таққослаб ўрганишларига имкон беради.

Кўлланма беш маантиқий қисмдан иборат.

Биринчи қисм - “Муқаддима”да лотинча ўзбек алифбоси (янги ўзбек алифбоси) ҳақида тўла маълумот берилди.

Иккинчи қисмда ҳар бир ҳарфнинг босма, ёзма шакллари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, сўзлар, машқлар, қисқа-қисқа матнлар берилди. Бундан ташқари, энг зарур, муҳим айрим имловий қондалар берилди.

Учинчи қисмда матн сифатида расмий иш қоғозларидан намуналар берилди. Бу ҳужжат намуналаридан якунловчи машғулотларда ёки контрол ишда фойдаланиш мумкин.

Тўртинчи қисмда эса мустақил ўқиш учун матнлар лотинча ўзбек ҳарфлари билан берилди.

Бешинчи қисмда олинган билимларни синаш мақсадида диктант учун қисқа-қисқа матнлар берилди.

Кўлланмага киритилган матнларнинг тарбиявий ва таълимий томонларига алоҳида эътибор берилди.

Диктант матнларини тавлашда А. Нурмонов ва Ш. Юсуповлар томонидан тайёрланган “Диктантлар тўплами”дан (Андижон, 1994 йил) фойдаланилди.

Хозирги лотинча ўзбек алифбоси 1929 йилда қабул қилинган ва 1934 йилда ислох қилинган лотинча ўзбек алифбосидан ҳам, Оврупо алифболаридан ҳам сезиларли фарқ қилади. Бундан англашвлдидики, лотинча ўзбек алифбосини ўрганиш учун маълум вақт ва талайгина саън-ҳаракат сарфлаш лозим бўлади.

Бу типдаги қўлланма муаллиф томонидан биринчи марта яратилаётгани туфайли унда айрим камчиликлар, баҳсталаб ўривлар бўлиши мумкин. Қўлланмада йўл қўйилган камчиликларни бартараф қилишга қаратилган ҳар қандай фикр-мулоҳазаларни муаллиф мамнуят билан қабул қилади.

МУАЛЛИФ.

ЯНГИ АЛИФБО

Босма	Ёзма	Ҳарф НОМИ	Босма	Ёзм а	Ҳарф номи
Aa	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	re
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	es
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	ef	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	v
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe
Ii	<i>Ii</i>	I	Yy	<i>Yy</i>	ye
Jj	<i>Jj</i>	je	Zz	<i>Zz</i>	ze
Kk	<i>Kk</i>	ke	O'o'	<i>O'o'</i>	o'
Ll	<i>Ll</i>	el	G'g'	<i>G'g'</i>	g'
Mm	<i>Mm</i>	em	Shsh	<i>Shsh</i>	sh
Nn	<i>Nn</i>	en	Chch	<i>Chch</i>	che
Oo	<i>Oo</i>	o	ng	<i>Ngng</i>	nge
Pp	<i>Pp</i>	pe			туғуқ белгиси

1993 йил 2 сентябрда қабул қилиниб, 1995 йил 6 майда ўзгаришлар киритилган ўзбек алифбоси

II ҚИСМ

1. А а ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги А а ҳарфи ўрнида қўлланади. Бу унли товуш бўлиб, лабланмаган, кенг, олди қатор А а товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

Босма шакли: А А А А А

а а а а а
Ёзма шакли: А А А А А
а а а а а

Бу ҳарф:

а) ака (ака), asal (асал), bola (бола), alanga (аланга), каби сўзларда юмшоқ “а” товушини;

б) аног (анор), bahor (баҳор), zamon (замон), savol (савол) каби сўзларда қаттиқ “а” товушини билдиради.

1-маиқ. Қуйидаги сўзларни ўқинг ва “а” товушини қаттиқ ҳамда юмшоқ айтиладиганларини алоҳида-алоҳида устулларга ажратиб кўчириг:

aloqa, vagon, asra, vakolat, atama, navbat, vafo.

2-маиқ. Қуйида берилган сўзларни лотинча ўзбек алифбосига айлаштириб ёзинг:

Акрам, шакар, ҳарф, васваса, иккала, араб, вақт

II В в ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги В в ҳарфи ўрнида қўлланиб, лотинча ўзбек алифбосида “ve” (бе) деб ўқилади. Лаб-лаб, жарангли, портловчи В в ундош товушини ифодалайди.

Босма шакли: В В В В В

в в в в в
Ёзма шакли: В В В В В
в в в в в

Бу ҳарф:

а) bobo (бобо), bino (бино), zarb (зарб), majbur (мажбур) каби қатор сўзларда лаб-лаб товушини ифодалайди;

б) kitob (китоб), tartib (тартиб), maktab (мактаб), yuzlab (юзлаб) каби сўзларда бу ундош товуш p (п) айtilса ҳам, доимо b (б) ёзилади;

в) tobla (тобла), qibla (қибла), ko'rib oldi (кўриб олди) каби сўз ва бирикмаларда v (в) айtilса ҳам, доимо b (б) ёзилади.

1-маск. "Ишю лугати"дан фойдаланиб в (б) ҳарфи p (п) айtilса ҳам, b (б) ёзиладиган сўзлардан 5 та, v (в) айtilиб, b (б) ёзиладиган сўзлардан 5 та топиб, дафтарингизга ёзинг.

2-маск. Матни ўқинг.

Prezidentimiz Islom Karimov 1938 yil 30 yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ildi. Millati o'zbek. Ma'lumoti oliy. O'rta Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xo'jaligi institutini bitirgan, injener-mexanik va iqtisodchi ixtisoslarini egallagan, iqtisod fanlari nomzodidir.

III D d ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги Д д ҳарфи ўрнида қўлланиб, латинча ўзбек алифбосида "de" (де) деб ўқилади. Ёзмадаги бош ҳарф Д шакли кириллча ўзбек алифбоси билан бир хил шаклга эга, кичик d шакли эса ундан мутлақо фарқ қилади. Бу ҳарфнинг бош шакли ҳам, кичик шакли ҳам сатр чизиги устида ёзилади.

Босма шакли:	D	D	D	D	D
	d	d	d	d	d
Ёзма шакли:	<i>D</i>	<i>D</i>	<i>D</i>	<i>D</i>	<i>D</i>
	<i>d</i>	<i>d</i>	<i>d</i>	<i>d</i>	<i>d</i>

Жарангли, портловчи, тил олди d (д) товушини ифодаловчи бу ҳарф:

а) *dori* (дори), *dur* (дур), *dala* (дала), *odat* (одат), *darvo* (дарё), *dunyo* (дунё), *sado* (садо) каби сўзларда тил олди, жарангли, портловчи d (д) товушини ифодалайди;

б) *ozod* (озод), *obod* (обод), *badqovoq* (бадқовоқ), *budka* (будка), *Murod* (Мурод), *zavod* (завод), *rud* (руд) каби сўзларда жарангсизлашиб (галаффузда) t (т) айгилса ҳам, доимо d (д) ёзилади.

1-масъ. Кичик d ҳарфининг ёзма шаклларида 4 қатор, катта ва кичик босма шаклларида 4 қатор дафтарингизга ёзинг.

2-масъ. Қуйидаги сўзларни ўқинг ва улар иштирокида гаплар тузинг:

dard, *kasalmand*, *band*, *obod*, *Murod*, *maqsad*, *madad*,
zavod, *daraxt*, *zahmat*, *ziyod*, *zotdor*.

Namuna. Zavodimiz bog'ida 100 dan ziyod mevali daraxt bor.

IV E e ҳарфи

Бу ҳарф ёзмада ҳам, босмада ҳам, бош ва кичик шаклда ҳам кириллча ўзбек алифбосидаги E e унлисидан фарқ қилмайди. Аммо вазифаси жиҳатидан латинча ўзбек алифбосида бугунлай фарқ қилади. У лабланмаган, олд қатор, ўрта кенг Э э товуши ўрнида қўлланади. Бош шакли ҳам, кичик шакли ҳам сатр чизиғи устида ёзилади.

Босма шакли: E E E E E

Ёзма шакли: $\begin{matrix} e & e & e & e & e \\ \text{e} & \text{e} & \text{e} & \text{e} & \text{e} \\ e & e & e & e & e \end{matrix}$

Бу ҳарф *eshik* (эшик), *elak* (элак), *ekran* (экран), *metro* (метро), *meros* (мерос), *sedana* (седана), *ekin* (экин), *ter* (тер), *meimon* (меҳмон), *egar* (эгар), *ekvator* (экватор), *element* (элемент), *men* (мен), *ehtimol* (эҳтимол), *poema*

(поэма) каби сўзларда кириллча ўзбек алифбосидаги Э э товуши ўрнида қўлланади.

1-машқ. Е е ҳарфи сўз ўртасида келган сўзлардан 5 та ва сўз охирида келган сўзлардан 5 та тониб дафтарингизга ёзинг.

2-машқ. Матнни ўқинг ва е (э) ҳарфи катнашган сўзларни дафтарингизга кўчириб, вазифасига диққат қилинг.

ALLA - KO'NGIL NIDOSI


Alla - ona qalbining tub-tubidagi orzu-armonlaridan yaralgan sehrlı ohang... ham mung, ham quvonch, tuyg'ularini o'zida jo etib, tomirlarda erib oqadi u. Alla... Bu qo'shiqning ildizlari qadim-qadim davrlarga ulanib ketgan. Yilma-yil, davrma-davr daryo yanglig' o'ziga yo'l ochib, yangi-yangi irmoqlar yaratib, boyib, sayqallanib kelayapdi bu qo'shiq.

Bolalarning ilk tarbiyasi alladan boshlanajagi hammamizga ma'lum. Shuning uchun ham biz doimo qizlarimizga alla kabi sehrlı ohanglardan saboq berib bormog'imiz lozim.

(M.Yoqubbekova).

V F f ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги Ф ф ҳарфи ўрнида қўлланади ва латинча ўзбек алифбосида "fe" (фе) деб ўқилади.

Босма шакли: F F F F F
f f f f f
Ёзма шакли: 

Шакллардан кўриниб турибдики, F f ҳарфининг катта шакли сатр чизиғидан юқори томон чиқариб ёзилса,

кичик шакли сатр чизигидан пастга томон тушириб ёзилади.

Бу ундош ҳарф:

а) fe'l (фeъл), ulfat (улфат), safar (сафар), insof (инсоф), fan (фан), fidokor (фидокор), futbol (футбол), fizika (физика) каби сўзларда жарангсиз, спргалувчи, лаб товуши f (ф) ни ифодалаш учун ёзилади;

б) farq (фарқ), fasl (фасл), Fotima (Фотима), fayz (файз), fursat (фурсат), sadaf (адаф) каби сўзларда f ҳарфи баъзан талаффузда p (п) айтилса ҳам, аслига мувофиқ f (ф) ёзилади.

1-масқ. Дафтарингизга F f ҳарфининг катта ёзма шаклини () икки қатор, кичик ёзма () ва босма (f) шаклини икки қатордан ёзинг.

2-масқ. Дафтарингизга fayz (файз), juft (жуфт), insof (инсоф) сўзларини икки қатордан ёзинг.

3-масқ. Қуйидаги гапларни ўқинг:

1. Fisqni fasod fosiqdandir,
Fazlu kamol fozildandir. (Matal).


2. "Lutfan taklif etaman" deyish muomala odobiga muvofiqmi?

3. "Falonci tashrif buyurdilar" deyishchi?

VI G g ҳарфи

Бу ҳарф қириллча ўзбек алифбосидаги Г г ҳарфи ўрнида қўлланади ва лотинча ўзбек алифбосида "ge" (ге) деб ўқилади. Бош ҳарф (G) сатр чизиги устида, кичик ҳарф (g) эса сатр чизигидан пастга тушириб ёзилади.

Босма шакли: G G G G G

Ёзма шакли: 

Бу ҳарф *Go'zal* (Гузэл), *Gulandom* (Гуландом), *gul* (гул), *gugurt* (гугурт), *bugun* (бугун), *bigiz* (биғиз), *shogird* (шогирд), *bag* (бағ), *tag* (тағ) каби сўзларда жарангли, портловчи, саёз тил орқа *g* (г) ундонини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-машқ. Дафтарангизга *G g* ҳарфининг катта ёзма ва босма шаклидан пекки қатордан, кичик босма шаклидан тўрт қатордан ёзинг.

2-машқ. Берилган сўзларни ўқинг ва улар иштирокида гаплар тузинг.

ko'zgu, dugona, yagona, pedagog, yoldor, filolog, bigiz, gugurt, Gulsora, Go'zal, Gulnora, Gulbahor.

3-машқ. Матнни ўқинг.

IGNA YUTISH.

Igna yutib, g'amga botganda mutloq,

Tadbiri hikmatdan emasdir uzoq.

Magnetitdan tugib bir dirhamini

Uzum suvi ila ichgin o'sha choq.

*("Hakimlar hokoyati" dan,
Toshkent, 1991-yil, 81-bet).*

Топшириқ. *G g* ҳарфи қатнашган сўзлар тағига чизинг.

VII **H h** ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги **Х х** ҳарфи ўрнида қўлланади ва лотинча ўзбек алифбосида "he" (хе) деб ўқилади. Катта шакли ҳам (**H**), кичик шакли ҳам (**h**) сатр чизини устида ёзилади.

Босма шакли: **H H H H H**

h h h h h

Ёзма шакли: *H H H H H*

h h h h h

Бу ҳарф *hosil* (ҳосил), *hamma* (ҳамма), *Habib* (Ҳабиб), *hilol* (ҳилол), *bahor* (баҳор), *nihol* (ниҳол), *shahar* (шаҳар), *isloh* (ислоҳ), *ogoh* (оғоҳ), *giyoh* (гиёҳ), *siyoh* (сиёҳ) каби сўзларда жарангсиз, сирғалувчи, бўғиз уидоши **h** (**x**) ни ифодалайди.

1-масъ. Дафтарингизга **H h** ҳарфининг кичик босма ва ёзма шаклиларидан тўрт қатор ёзинг.

2-масъ. Қуйидаги сўзларни ўқиб, улар иштирокида гаплар тузинг:

baqiat, hamroh, oromoh, mahamat, ob-havo, mahabo, muhim, malohat, Habib, handalak

3-масъ. Матнини ўқинг.

Keyingi paytlarda “badiiy havaskorlar”, “badiiy havaskorlar kollektivi”, “badiiy kollektiv”, “bolalar badiiy kollektivlari” degan iboralar eshitilib turibdi. Albatta, “badiiy” so’zini nutqqa nisbatan ishlatish mumkin, lekin kishiga nisbatan ishlatib bo’lmaydi.

Kishi va kollektivga nisbatan “san’atkor” yoki “san’atchi” so’zi qo’llanadi. Binobarin, “badiiy havaskorlar” emas, “havaskor san’atkorlar” deyilsa, nutq to’g’ri bo’ladi.

(A.Rustamov. So’z xususida so’z, Toshkent, 1987-yil, 134-bet).

VIII I i ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги “И и” ҳарфи ўрнида қўлланади. Мазкур унли товуш лаблабмаган, тор, юмшоқ, баъзан қаттиқ **i** (**и**) товушини ифодалайди. Катта шакли “**I**” ҳам, кичик шакли “**i**” ҳам сатр чизиғи устида ёзилади.

Босма шакли: **I I I I I**

Ёзма шакли: *I I I I I*
i i i i i

Бу ҳарф:

а) *Imon* (Илҳом), *in* (ин), *yil* (йил), *imon* (имон), *ikki* (икки), *iltifot* (илтифот), *tulki* (тулки), *valida* (волида), *Xolida* (Холлида), *piramida* (пирамида) каби сўзларда олд қатор, тор, қаттиқ талаффуз қилинадиган *i* (и) товушини ифодаласа;

б) *bilan* (билан), *bilak* (билак), *biroq* (бирок), *chiroq* (чирок), *tilak* (тилак) каби сўзларда олд қатор, тор, юмшоқ талаффуз қилинадиган *i* (и) товушини ифодалайди;

в) *o'tin* (ўтин), *o'rik* (ўрик), *ko'rik* (кўрик), *to'siq* (тўсиқ), *bo'lim* (бўлим), *o'ttiz* (ўттиз), *to'qqiz* (тўққиз) каби олдинги бўғинида *o'* (ў) унлиси келадиган сўзларнинг кейинги бўғинида *u* (у) эмас, *i* (и) айтилади ва шундай ёзилади.

1-масх. Қуйида берилган сўзларни ўқинг ва улар иштирокида гаплар тузинг:

kishi, sira, shira, zira, ixtisos, qishloq, ilon, xirmon, bilim, oqim, chigit, ekdi, Karim.

2-масх. Дафтарингизга *I i* (и) ҳарфининг катта ва кичик, босма ва ёзма шаклларида икки қатордан ёзинг.

3-масх. Берилган гапларни лотинча ўзбек алифбосидаги ҳарфлар билан ёзинг.

1. Нуҳ алайҳиссалом Аллоҳ таоло ер аҳлига юборган пайғамбарларнинг энг биринчисиدير.

(Ҳадис, 3-том, 152-бет).


2. “Хурсандликдан тўкилган кўз ёши совуқ, ғамдан тўкилган кўз ёши эса иссиқ бўлади”, - дейдилар.

(Ҳадис, 3-том, 112-бет).

IX J j ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги “Ж ж” ҳарфи ўрнида қўлланади ва *je* (же) деб ўқилади. Катта (*J*) сатр чизиғи устида, кичик (*j*) шакли сатр чизиғидан пастга тушириб ёзилади ва устига нукта қўйилади.

Босма шакли: J J J J J

Ёзма шакли: 

Бу ҳарф икки товушни ифодалайди:

а) Jo'ra (Жўра), Javdat (Жавдат), jahon (жаҳон), jiyda (жийда), marjon (маржон), jonajon (жонажон), tijorat (тижорат), toj (тож), pivoj (пивож), vaj (важ) каби сўзлар таркибида қўлланиб, тил олди, жарангли, қоришиқ, портловчи қаттиқ j (ж) ундошини ифодаласа;

б) vijdon (виждон), ajdar (аждар), gijda (гижда), mujda (мужда), jurnal (журнал), jeton (жетон), jaket (жакет) каби сўзларда қўлланиб, тил олди, жарангли, сирғалувчи юмшоқ j (ж) ундош товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-масқ. J j (Ж ж) ҳарфининг катта ва кичик ёзма шаклиларидан тўрт қатордан дафтариңгизга ёзинг.

2-масқ. “Имло луғати”дан J j (Ж ж) ҳарфи қоришиқ портловчи қаттиқ (жўжа каби) товушини билдирган сўзлардан 5 та, сирғалувчи юмшоқ товушни ифодалаган сўзлардан 5 та топиб, дафтариңгизга кўчиринг.

3-масқ. Матнини ўқинг.

“Je” der, joyimdan ochay so'z,

Qilay sizga o'zim ko'z-ko'z.

Jamol birla Jononni,

Jumla jonu jahonni,

Jo'ja hamda jayronni,

Jannat, Jamshidu jonni-

Barining g'amin yerman,

Qalqon bo'layin derman.

X K k ҳарфи

Бу ҳарф босма шаклда (K) ҳам ёзма шаклда ҳам (k) кириллча ва лотинча ўзбек алифболарида деярли бир хил

ёзилади. Фақат кичик к ҳарфи ёзувда бироз фарқ қилади: лотинча алифбода ёзилаётганда чап томон калтаги сатр чизиғидан юқорирокқа чўзиб ёзилса ҳам, вазифаси жиҳатидан фарқ қилмайди ва “ke” (ке) деб ўқилади.

Босма шакли: К К К К К

Ёзма шакли: *к к к к к*
к к к к к

Бу ҳарф ko'rk (кўрк), ko'l (кўл), ko'ylak (кўйлак), kichik (кичик), tilak (тилак), bilak (билак) каби сўзларда жарангсиз, портловчи саёз тил орқа к (к) ундошини ифодалаш учун ёзилади.

1-масх. Дафтарингизга уярак, буярак, етак, букри, моки сўзларининг ҳар бирдан икки қатордан ёзинг.

2-масх. Матнни лотинча ўзбек алифбосига ўтириб ёзинг.

Қайдаки емирлса эътиқод, ишонч,
Имоннинг кўксига заҳри занг кўнар.
Мардуми кул юртга нораво юпанч,
Ул днёр куёши мангуга сўнар.

(М. Омонова).

XI L l ҳарфи /

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги Л л ҳарфи ўрнида кўлланиб, “le” (ле) деб ўқилади. Бош ҳарф (L) ҳам, кичик ҳарф (l) ҳам сатр чизиғи устида ёзилади.

Босма шакли: L L L L L

Ёзма шакли: *l l l l l*
l l l l l

Бу ҳарф Lola (Лола), Lobar (Лобар), loyiq (лойик), dala (дала), bola (бола), ko'l (кўл), zilol (зиллол), la'l (лаъл),

mahal (маҳал) каби сўзлар таркибида қўлланиб, жарангли, сонор, тил олди, ён ундош товуши l (л) ни ифодалайди.

1-машқ. Дафтарингизга L l (Л л) катта ва ёзма шаклини тўрт қатор, кичик ёзма шаклини икки қатор ёзинг.

2-машқ. Берилган сўзларни дафтарингизга кўчириб ёзинг.

Latofat, bilim, bol, lab, o'tloq, uyulov, lashkar,
qal'a, laziz, bulbul, Laylo, Fazilat

3-машқ. Хикоятни ўқинг.

Bir donishmanddan so'radilarkim, saxovat yaxshidirmi yohud shijoat? Ul donishmand javob berib aydikiim, saxovat bo'lgach, shijoatning nima hojati bor?

(Sa'diy. "Guliston").

XII M m ҳарфи /

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги М м ҳарфи ўрнида қўлланади. Катта шакли ҳам босма, ҳам ёзмада кириллча ўзбек алифбосидаги шакл билан бир хил, вазифалари ҳам бир хил. Кичик шакли m (м) тафовут қилади. Бу ҳарф лотинча ўзбек алифбосида "me" (ме) деб ўқилади.

Босма шакли: М М М М М
m m m m m

Ёзма шакли: *M M M M M*
m m m m m

Мазкур ҳарф Muborak (Муборак), muquvvat (мурувват), malak (малак), qumursqa (кумурсқа), mukammal (мукаммал), imon (имон), Phom (Илхом), tamom (тамом), каби сўзлар таркибида қўлланиб, жарангли, сонор, лаб-лаб, бурун ундоши m (м) ни ифодалайди.

1-машқ. Дафтарингизга murojaat, Mohira, million, tuman сўзларини икки қатордан ёзинг.

2-машқ. “Қоматига ишонган қаддини букиб кетади, билимига ишонган муродига етади” мақолини лотинча ўзбек алифбоси ҳарфлари билан ёзинг.

3-машқ. Матнни ўқинг.


Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib foydalanmagan va ikkinchisi ilm olib, unga amal qilmagan odamdır.

(Ahmad Yassaviy).

XIII N п ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги Н н ўрнида қўлланиб, “ne” (не) деб ўқилади.

Босма шакли: N N N N N

Ёзма шакли: 

Бу ҳарф:

а) nomus (номус), nishon (нишон), nau (най), ona (она), tana (тана), tomon (томон), to'g'on (тўғон), non (нон), doston (достон), darmon (дармон) каби сўзлар таркибида қўлланиб, жарангли (овоздор), сонор, тил олди, бурун ундош н (н) ни ифодалайди;

б) shanba (шанба), sunbul (сунбул), yonbosh (ёнбош), jonbozlik (жонбозлик), yonma-yon (ёнма-ён), aylanma (айланма) каби сўзларда “b” (б), m (м) ҳарфларидан олдин келган “n” (н) товуши оғзаки нутқда баъзан “m” (м) айтилса ҳам, донмо “n” (н) ёзилади.

1-машқ. N n ҳарфининг кичик ва катта шаклини дафтарингизга тўрт қатордан ёзинг.

2-машқ. Husanboy, ko'rinmaslik сўзларини дафтарингизга икки қатордан ёзинг.

3-машқ. “Имло луғати”дан п (п) ҳарфи ь (ь), м (м) ҳарфларидан олдин келган сўзлардан 10 та топиб дафтарингизга ёзинг. Айтилиши ва ёзилишига диққат қилинг ҳамда улар иштирокида гаплар тузинг.

XIV О о ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосида ҳам, лотинча ўзбек алифбосида ҳам бир хил шаклда ва бир хил вазифада қўлланади. Босма ва ёзма шакллари ҳам деярли фарк қилмайди.

Босма шакли: О О О О О
 Ёзма шакли: *О О О О О*
σ σ σ σ σ

Мазкур ҳарф Омон (Омон), Odil (Одил), ovoz (овоз), oltin (олтин), olmos (олмос), boy (бой), oson (осон), qorlon (қорлон), fido (фидо), baho (баҳо), lotin (лотин), mahorat (махорат), muhokama (муҳокама) каби сўзлар таркибида қўлланиб, лабланмаган, кенг, орқа қатор (тил орқа) О товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-топшириқ. Дафтарингизга қуйндаги сўзларни ёзиб, улар иштирокида гаплар тузинг:

mukofot, quyosh, bola, bozor, Orif, olma, olmos, olmoq

2-топшириқ. Матнни ўқинг.

Lablaridan tomizib sharbat,
 Ol, ye, deydi, armonda qolma!
 Lekin shunga hayronman faqat,
 Nega uni deydilar “olma?”

Olma eksa bog’iga har kim,
 Mehmoniga ol, ye, demasmi?
 “Olma” mening mehmondo’st xalqim -
 Odatiga yot so’z emasmi?

Meva berdi yetilib bu yil
Men ardoqlab o'stirgan nihol.
Olmalarki, shafaqday qizil,
Lekin nomi "olma" emas, ol!
(E. Vohidov).

XV P p харфи.

Бу харф кириллча ўзбек алифбосидаги П п ўрнида қўлланиб, "пе" (пе) деб ўқилади.

Босма шакли: P P P P P

Ёзма шакли: P P P P P
P P P P P

Мазкур харф пахта (пахта), pichoq (пичок), Po'lat (Пўлат), тера (тепа), ора (опа), тир (туп), қор (қоп), уор (ёп) каби сўзларда қўлланиб, жарангсиз, портловчи, лаб-лаб p (п) ундош товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-машқ. Дафтариингизга P p (П п) харфининг катта ва кичик ёзма шакллариининг хар биридан икки қатордан ёзинг.

2-машқ. Қуйидаги сўзлар иштирокида гаплар тузинг:
pomidor, poytaxt, poydevor, rog'ona, posbon,
poyezd, ko'rinmoq, bozor, qirmoq, bormoq.

3-машқ. Матни ўқинг.

Parvardigorim: 'Ey Muhammad, bir kecha-kunduzda besh mahal namozni farz qildim. Har bir namozga o'n mahalning, besh mahalda ellik mahalning savobini beraman. Kimki biron ezgulikni o'ylab uni qilolmasa, bir yaxshilikning savobi, mabodo ko'ngliga tukkan ezgulikni ro'yobga chiqarsa, o'n yaxshilikning savobi beriladi. Kimki biron shumlikni ko'zlasa-yu, amalga oshirmasa, yomonlik yozilmaydi, mabodo

o'ylagan yomonligini qilsa, bitta yomonlikning gunohi yoziladi",- degan.

(Muhammad Huzariy).

XVI Q q харфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги К к ҳарфи ўрнида қўлланади ва "qa" (ка) деб ўқилади.

Босма шакли: Q Q Q Q Q

q q q q q

Ёзма шакли: Q Q Q Q Q

q q q q q

Бу ҳарф qimiz (қимиз), qizil (қизил), qalb (қалб), qum (қум), qoshiq (қошиқ), to'qima (тўқима), oqshom (оқшом), to'qson (тўқсон), qishloq (қишлоқ), qirg (қирк), haqiqiy (ҳақиқий), tuyoq (туёқ) каби сўзлар таркибида қўлланиб, чуқур тил орқа, жарангсиз, портловчи q (к) ундошини ифодалаш учун ёзилади.

1-машқ. Дафтارينгизга Q q ҳарфининг катта ва кичик ёзма шакллариининг ҳар биридан тўрт катордан ёзинг.

2-машқ. Сўзнинг бошланиши ва охирида q (к) ҳарфи иштирок этган сўزلардан 10 та топиб, лотинча ўзбек алифбосида дафтارينгизга кўчиринг.

3-машқ. Матнини ўқинг.

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Quyuq qayrilma qoshing, qiz.

Qilar qatlimga qasd qayrab -

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,

Qanot qoqmoqqa qo'umaysan.

Qarab qo'ugin qiyo, qalbimni

Qizdirsin quyoshing, qiz.

(E. Vohidov).

XVII R r ҳарфи.

Бу ҳарф кириллча ўзбек алфбосидаги Р р ҳарфи ўрнида қўлланиб, “re” (ре) деб ўқилади.

Босма шакли: R R R R R

Ёзма шакли: $\overset{r}{R}$ $\overset{r}{R}$ $\overset{r}{R}$ $\overset{r}{R}$ $\overset{r}{R}$

ʀ ʀ ʀ ʀ ʀ

Мазкур ҳарф Rahim (Раҳим), rohat (роҳат), Ra'no (Раъно), doira (донра), shart (шарт), agra (агра), dusha (дурра), mehri (меҳр), yer (ер), diyor (диёр), kelar (келар) каби сўзлар таркибида қўлланиб, жарангли, тил олди, сонор, титроқ r (р). товушини ифодалаш учун ёзилади.

1-масқ. Дафтарингизга R r ҳарфининг катта ёзма шаклидан тўрт қатор, кичик ёзма шаклидан икки қатор ёзинг.

2-масқ. Қуйидаги сўзларни лотинча ўзбек алифбосига айлантириб ёзинг:

Розик, Рухсор, ривож, нашриёт, рисола, раҳбар, шаронт, Шарқ, Расул, раҳм, Равшан.

3-масқ. Шеърини парчани ўқинг.

Aqlu hush uchdi boshimdin, ey pari, devonaman,
Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsona man.

(Muqimiy).

XVIII S s ҳарфи.

Бу ҳарф кириллча ўзбек алфбосидаги С с ҳарфи ўрнида қўлланиб, “es” (эс) деб ўқилади.

Босма шакли: S S S S S

Ёзма шакли: $\overset{s}{S}$ $\overset{s}{S}$ $\overset{s}{S}$ $\overset{s}{S}$ $\overset{s}{S}$

s s s s s

“S s” ҳарфи sog’ (соғ), somon (сомон), sabr (сабр), soat (соат), Sobit (Собит), safar (сафар), Osiyo (Осиё), tovus (товус), olmos (олмос), istak (истак), issiq (иссиқ), saylov (сайлов), sur’at (суръат), surat (сурат), san’at (санъат) каби сўзлар таркибида қўлланиб, тил олди, жарангсиз, сирғалувчи ундошни ифодалаш учун хизмат қилади.

1-машқ. Дафтариғизга S s ҳарфининг катта ва кичик шаклини (ёзма ҳарф) тўрт қатордан ёзинг.

2-машқ. “Мен севган касб” мавзuida лотинча ўзбек алифбосида илшо ёзинг.


3-машқ. Матни ўқиб, дафтариғизга кўчиринг.

Aqllik bo’lsa gar javob beradi,
 Faqat undan savol so’ralgan zamon.
 Garchi haq bo’lsa ham sergapning so’zi,
 Gaplarini yolg’onga jo’yishar oson.
 (Ahmad Yassaviy).

XIX T t ҳарфи

“T t” ҳарфи кириллча ўзбек алифбосидаги Т т ҳарфи ўрнида қўлланади ва “te” (те) деб ўқилади.

Босма шакли: T T T T T

Ёзма шакли: 

Бу ундош ҳарф tong (тонг), tole’ (толеъ), butun (бутун), tun (тун), tutun (тугун), kitob (китоб), matematika (математика), qattiq (қаттиқ), harakat (ҳаракат), karaxt (карахт), uyat (уйат), o’t (ўт), Tal’at (Талъат) каби сўзлар таркибида қўлланиб, тил олди, жарангсиз, портловчи “T t” (Тт) товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-машқ. Дафтارينгизга Т t (Т т) ҳарфининг катта ёзма шаклини икки қатор, кичик ёзма шаклини тўрт қатор ёзинг.

2-машқ. Қуйидаги сўзларини лотинча ўзбек алифбосига ўгириб кўчиринг:

кўрсатув, тортмоқ, таъминламоқ, термоқ, етмоқ,
кутмоқ, ўргатув, кутипш, ботириш, торттириш.

3-машқ. Матнни ўқинг.

“Jannat onalarning oyog’*in ostinda*” degan so’z ulug’ kitoblarda bordir. Ba’zi ulug’ mullalar onalarini xursand qilmoq uchun hajga yetti marta elkalarinda opichlab olib borib-olib kelmishlar.

Onalarning haqlariga bul tariqa hurmat ham kamdirki, alarni rozi qilmoq uchun mundin ko’p va ulug’roq hurmat qilmoq lozimdir.

XX U u ҳарфи

Бу унли ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги У у ҳарфи ўрнида қўлланиб, лабламанмаган, тор, юмшоқ ва қаттиқ товушни ифодалаш учун хизмат қилади.

Босма шакли: U U U U U

u u u u u

Ёзма шакли: *U U U U U*

u u u u u

Бу ҳарф:

а) kun (кун), tun (тун), butun (бугун), ko’zgu (кўзгу), uyqu (уйқу), buloq (булоқ), Vahoro (Бухоро), Mahfuza (Маҳфуза), mafkura (мафкура) каби сўзларда орқа қатор, тор ва қаттиқ (чўзиқроқ) u (у) унлисини ифодалайди;

б) qovun (қовун), sovun (совун), movut (мовут), tovush (товуш), yovuz (ёвуз), qirg’ovul (қирғовул), chirmovuc (чирмовук) каби сўзларнинг олдинги бўғинида o унлиси келса, кейинги ёшқ бўғин бошидаги “v” (в) дан кейин

қисқа, юмшок, лаблабмаган, орқа қатор, тор і (и) тарзида талаффуз қилинади. Аммо доимо и (у) ёзилади ва талаффузини бузмай и (у) айтилиши керак.

1-машқ. “Имло луғати”дан “и” (у) унлиси юмшок айтиладиган (биринчи бўғинида о унлиси келадиган) сўزلардан 10 та топиб, лотинча ўзбек алифбосида ёзинг.

2-машқ. Ўзингиз билган дарахт номларини лотинча ўзбек алифбосида ёзинг ва улар иштирокида гаплар тузиб, и (у) унлисининг айтилиши ва ёзилишига диққат қилинг.

3-машқ. Матнни ўқинг.

Bir odam xat yozib o'tirganda, bir begona kishi uning oldida o'tirib xatiga qarab o'qiy boshladi. Ul odam xatida "bir begona ahmoq odam oldimda o'tirib xatimga qaramoqda, shul sababli ichki sirimni yozolmadim" deb yozdi. Ul kishi: "Men xatingni o'qiganim yo'q, nega meni ahmoq deb yozasan",- dedi. "Agar xatimni o'qimagan bo'lsang ahmoq deb yozganimni qayerdan bilding?"- deb uyaltirdi ul kishi. Ey shogirdlar, birov xat yozganda, xatiga aslo qaramangizlarkim, bu nihoyatda beodoblikdir.

XXI V v ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги В в ҳарфи ўрнида қўлланади ва “v” (ve) деб ўқилади.

Босма шакли: V V V V V

Ёзма шакли: v v v v v

v v v v v

“V” ундоши:

а) ov (ов), kuov (куёв), ovoz (овоз), volida (волида), vafo (вафо), vatan (ватан), vazir (вазир), shovvoz (шоввоз), da'vo (даъво), vodiu (водий), vaqt (вақт) каби сўزلарда жарангли, лаб-лаб, сирғалувчи ундош товушни ифодалаш учун ёзилади;

б) avtomobil (автомобилъ), avtobus (автобус), avtokolonna (автоколонна), avtoqushka (авторучка) каби четдан кирган сўзлар таркибида "v" (в) ундоши баъзан жарангсиз f (ф) каби лаб-тиш ундош сифатида айтилса ҳам, деимо v (в) ёзилади.

1-масъ. Дафтарингизга V v (В в) ҳарфининг катта ва кичик ёзма шаклларини тўрт қатордан ёзинг.

2-масъ. V v (В в) ҳарфи иштирокида сўзлар топиб, лотинча ўзбек алифбосида ёзинг ва улар иштирокида гаплар тузинг.

3-масъ. Берилган мақолларни ўқинг.

Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Aql yoshda emas, boshda.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Tomchi-tomchi yig'ilib daryo bo'lur.

Tozalik sog'likning garovidir.

XXII X x ҳарфи

Бу ҳарфининг ёзма шакли ҳам, босма шакли ҳам, вазифаси ҳам кичикча ўзбек алифбосида қандай бўлса, лотинча ўзбек алифбосида ҳам худди шундай.

Босма шакли: X X X X X

Ёзма шакли: $\begin{matrix} x & x & x & x & x \\ \mathcal{X} & \mathcal{X} & \mathcal{X} & \mathcal{X} & \mathcal{X} \\ \mathfrak{x} & \mathfrak{x} & \mathfrak{x} & \mathfrak{x} & \mathfrak{x} \end{matrix}$

Бу ҳарф ҳар икки алифбода ҳам хабар (хабар), axborot (ахборот), miх (мих), xo'roz (хўроз), халq (халқ), xohish (хоҳиш), baxt (бахт), хитмон (хирмон), taxmin (тахмин) каби сўзлар таркибида қўлланиб, чуқур тил орқа, жарангсиз x (х) товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-масъ. Сўз охирида X x ҳарфи келадиган 10 та сўз топиб дафтарингизга ёзинг.

2-машқ. Берилган ҳарфлардан фойдаланиб сўзлар ясанг.

F f (Ф ф), G g (Г г), J j (Ж ж), Q q (Қ қ), L l (Л л), N n (Н н), P p (П п)

3-машқ. Матнни ўқинг.

Bayon aylaʼyin taʼrifim,
Ayon aylaʼyin tavsifim.
Xonning xazinasi, taxti,
Xattotning xati ham baxti,
Xalqning xayriyu xandoni
Xirmon-xirmon paxta koni,
Xursand, xurram va xanda,
Xavfi xatar ham manda.
Xeva hamda Xurosonda
Xonobodu Xosiyonda
Xizmatdaman Buxoroda,
Xorazm, Surxondaryoda,
Xoʻlda, Xoliq u Xoldor,
Xumor va Xurshidda men bor...

XXIII Y y ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги Й й ҳарфи ўрнида қўлланади ва “ye” (йе) деб талаффуз қилинади. У жарангли, тил ўрта, сирғалувчи ундош товушни ифодалаш учун хизмат қилади.

Босма шакли: Y Y Y Y Y

y y y y y

Ёзма шакли: y y y y y

y y y y y

Мисоллар: yaxshi (яхши), yomon (ёмон), yoʻl (йўл), Yoʻldosh (Йўлдош), yigit (йигит), soy (сой), boy (бой), toy (той), taууor (тайёр) каби.

1-машқ. “Имло луғати”дан у (й) ҳарфи ўртада келган сўзлардан 10 та, охирида келган сўзлардан 10 та топиб, лотинча ўзбек алифбосида ёзинг.

2-машқ. Қуйидаги гапларни лотинча ўзбек ёзувига ўтириб кўчиринг:

1. Дунёда адолат ва ҳақиқатнинг ғалабаси муқаррар.
2. Илм барча сир-асрорларнинг калидидир.
3. Йўлдош йўл-йўлакай Йўлчини чақириб ўтди.

3-машқ. Матнни ўқинг.

Yetimni lo'rsangiz og'ritmangizlar,
G'aribni ko'rsangiz dog' etmangizlar.
Yetimlar bu jahonda xo'r ekandur,
G'ariblarning ishi dushvor ekandur.
G'ariblarning ishi doim so'likdur,
Tirik ermas, g'arib misli o'likdur.

(Hikmat).

XXIV Z z ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги З з ҳарфи ўрнида қўлланиб, “ze” (зе) деб ўқилади.

Босма шакли: Z Z Z Z Z

Ёзма шакли: Z Z Z Z Z

Z Z Z Z Z

Z ҳарфи:

а) zar (зар), tizza (тицца), farzand (фарзанд), o'zbek (ўзбек), toza (тоза), namoz (намоз), chavandoz (чавандоз), soz (ғоз), piyoz (пиез) каби сўзлар таркибида қўлланиб, тил олин, жарангли, сирғалувчи ундошни пфодалаш учун ёзилади;

б) izchil (изчил), iztirib (изтироб), izquvar (изкувар), bo'zchi (бўзчи), tuzsiz (тузсиз) каби сўзлар таркибида жарангсиз ундошдан олдин келган z (з) ҳарфи z (с) айтилса ҳам, доимо z (з) ёзилади.

1-машқ. Z z (З з) ҳарфининг катта босма шаклини 4 қатор, кичик босма шаклини икки қатор, ёзма шаклларини ҳам икки қатордан дафтарингизга ёзинг.

2-машқ. Қуйидаги сўзларни лотинча ўзбек ёзувига ўгириб кўчиринг:

Зиёда, Зайнаб, Зухриддин, Зилола, чавандоз, сарафроз, фарзанд, алфоз, Зоҳид, Зарифа, зилзила, зўр.

3-машқ. Матнни ўқинг.

ISMLAR HOSIYATI

Asli “zumurrad” boʻlgan “zumrat” degan soʻz mavjud boʻlib, bu qizlarga ism qilib ham qoʻyiladi. Bu soʻzning “Zumrat” shakli, soʻz oxiridagi jarangli tovush “D” ning jarangsizlanib “Y” ga aylanishi va oʻrtadagi “u” va bitta “r” tovushining tushib qolishi natijasida vujudga kelgan. Soʻz oʻrtasidagi tovushlarning tushib qolishini “tortilish” deyiladi.

Oddiy soʻzlashuv tilida tortilish koʻp uchraydi: kabutar - kaptar, Muhammadamin - Madamin kabi.


Mazkur soʻzning, yaʼni “Zumurrad”ning “Zumrad” shakli ham hozirgi adabiy tildan oʻrin olgan. Ammo badiiy nutqda “Zumurrad” ham ishlatiladi. “Zumrad” koʻproq oddiy uslubga xos, badiiy nutqqa koʻproq “Zumurrad” shakli munosibroq tushadi.

(A. Rustamov).

XXV O' o' harfi

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги **Ů ů** ҳарфи ўрнида қўлланади. Босма шакли ёзма шаклидан деярли фарқ қилмайди. Фақат ёзма ҳарфдаги диакритик белги ҳарфнинг устига чизикча (-) шаклида қўйилиб, ўнг томонга бироз ётиқроқ ёзилади. Босма шаклида эса ҳарфнинг ўнг томонга штрих (') белгиси қўйилади.

Босма шакли: О' О' О' О' О'

Ёзма шакли: 

Бу о'т (ўт), о'қ (ўқ), о'zbek (ўзбек), о'simlik (ўсимлик), о'ttiz (ўттиз), о'lchov (ўлчов), бо'tako'z (бўтакўз) semizo't (семизўт), navro'z (наврўз) каби сўзлар таркибида кўлланиб, орқа қатор, ўрта кенг, лабланган, юмшок, (кискарок) о' (ў) товушини ифодалаш учун ёзилади.

1-маишқ. Қуйидаги сўзларнинг ҳар бирини уч қатордан дафтарингизга ёзинг:

но'o'gin (ноўрин), до'ppi (дўппи), о'simlik (ўсимлик), бо'zchi (бўзчи).

2-маишқ. Қуйидаги сўзларни логича ўзбек ёзувиغا ўгириб кўчиринг:

кўклам, кўсак, кўкат, ўрок, ўртоқ, кўмир, ўтин.


3-маишқ. Матнни ўқинг ва кўчиринг.

Olamda birinchi marta barmog'iga uzuk taqqan odam Jamshiddir. Undan so'radilar: "Nega hamma zeb-u ziynatni chap qo'lingga berding? Vaholanki, fazilat o'ng tarafdadir". Jamshid javob berdi: "O'ng qo'lning o'ng qo'l ekanining o'zi buyuk ziynatdir".

XXVI G' g' ҳарфи

Бу ҳарф кириллча ўзбек алифбосидаги F f ҳарфи ўрнида кўлланади ва "g'e" (ге) деб талаффуз қилинади.

Босма шакли: G' G' G' G' G'

Ёзма шакли: 

G' g' ҳарфи g'oz (ғоз), G'arb (Ғарб), g'alla (ғалла), g'uncha (ғунча), g'o'za (ғўза), og'ir (оғир), bog' (боғ), yog'

(ёғ), dog' (доғ), tog' (тоғ) каби сўзлар таркибида қўлланиб, сирғалувчи, жарангли, чуқур тил орқа g' (ғ) ундошмини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-масж. Қуйида берилган сўзларни дафтарингизга кўчиринг, уларнинг ёзилиши ва ўқилишини эсда тутинг. Улар иштирокида гаплар тузиб, лотинча ўзбек ёзувида ёзинг:

g'azal, g'ayrat, g'amxo'r, g'ijjak, G'ulom, G'ofur, G'ova, g'ulg'ula, g'ubor, g'itom, g'ijim, g'alaba, g'uncha

2-масж. Дафтарингизга g' (ғ) ҳарфининг катта ёзма шаклини тўрт қатор, кичик ёзма шаклини икки қатордан ёзинг.

3-масж. Матнни ўқиб, дафтарингизга кўчиринг.

Adllik bo'lsa gar javob beradi,
Faqat undan savol so'ragan zamon.
Garchi haq bo'lsa ham sergapning so'zi,
Gaplarini yolg'onga yo'yishar oson.
(Ahmad Yassaviy).

XXVII Sh sh ҳарфлар бирикмаси

Бу ҳарфий бирикма кириллча ўзбек алифбосидаги Ш ш ҳарфи ўрнида қўлланади ва "she" (ше) деб талаффуз қилинади.

Босма шакли: Sh Sh Sh Sh Sh
sh sh sh sh sh

Ёзма шакли: Sh Sh Sh Sh Sh
sh sh sh sh

Бу ҳарф:

а) shisha (шиша), shahar (шаҳар), shodlik (шодлик), shifo (шифо), oshiq (ошиқ), qoshiq (қошиқ), qo'shiq (қўшиқ), Sharq (Шарқ), yosh (ёш), she'r (шеър), sharaf (шараф) каби сўзлар таркибида қўлланиб, сирғалувчи, жарангсиз, тил олди ундошмини ифодалаш учун хизмат қилади;

б) Sh ҳарфлари икки товушни ифодаласа (сўз ўртасида келган ҳолатларда), улар ўртасига тутук белгиси (‘) қўйилади: Is’hoq (Исҳок), as’hab (асҳоб) каби.

1-масх. Дафтарингизга Sh (Ш ш) ҳарфлар бирикмасининг катта ва кичик шаклларини тўрт қатордан ёзинг.

2-масх. She’riyat (шеърият), sha’n (шаън), qashqa (қашқа), Shimol (Шимол), shoshilinch (шошилинч) сўзларининг ҳар бирини уч қатордан ёзинг.

3-масх. Шеърни ўқивг ва лотинча ўзбек ёзувига кўчиринг.

Нимжон болаларни чирмаб бу Ватаи,
Кайга учиб кетдинг, оққанот қишим?
Йўлда учрадинг ё сайёд ўқига,
Илмвлиқ кувларга қолмади ҳушим.

Ғўзаоя босиқ томларга туш, қор!
Биллур эртақдаги тилсиму виқор -
Болалек аталган боғдан туш, қишим...
Ошпоқ сукуватда янграсин ҳаёт...

(Ойдин Хожиева).

XXVIII Ch ch ҳарфлар бирикмаси

Бу ҳарфий бирикма кириллча ўзбек алифбосидаги Ч ч ҳарфи ўрнида қўлланиб, “che” (че) деб ўқилади.

Босма шакли: Ch Ch Ch Ch Ch
ch ch ch ch ch

Ёзма шакли: Ch Ch Ch Ch Ch
ch ch ch ch ch

Ch (Ч ч) ҳарфий бирикмаси chiroq (чирок), chevar (чевар), cheshak (чечак), choу (чоӣ), cho’zma (чўзма), chittak (читтак), chumchiq (чумчук), chug’ugchiq (чуғурчук), chuchvara (чучвара), achchiq (аччик), cho’mich (чўмич) каби

сўзлар таркибида қўлланиб, жарангсиз, тил олди, қорипиқ ch (ч) ундошини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-масж. Дафтарингизга Ch (Ч) ҳарфий бирикмасининг катта ва кичик ёзма шаклини икки қатордан ёзинг.

2-масж. Қуйидаги сўзларни дафтарингизга кўчириб ёзинг, ўқилиши ва ёзилишини ёдда тутинг, улар иштирокида гаплар тузинг:

chorbog', chigit, chodir, o'choq, cho'mich, pichoq, bichiqli, uchqun, chilangar, chug'urchuq

3-масж. Матнни ўқинг.

Har chand o'qibon bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak.

(Ahmad Yassaviy).

XXIX' ng ҳарфлар бирикмаси

Бу ҳарфий бирикма ҳозирги латинча ўзбек алифбосида ng (нг) ундошини ифодалайди. Мазкур товуш кпириллча ўзбек алифбосида ҳам фаол қўлланса-да, алифбода унга шакл (ҳарф) белгиланмаган эди. Бу эса ўқувчилар саводхонлигининг пасайишига олиб келиши табиий. Ҳозирги латинча ўзбек алифбосида бу товушга 29-ўринда "ng" кўринишида шакл олинishi бу камчиликни бартараф қилди. Унинг ёзма белгиси, кўриниб турганидек, n ва g ҳарфлари бирикмасидан (ng) ташкил топиб, nge (нге) деб ўқилади. Бу ҳарфий бирикма сўз бошида ҳеч қўлланмайди. Фақат сўзларнинг ўртаси ва охиридагина қўлланади. Бинобарин унинг бош ҳарф шакли йўқ.

Босма шакли: ng ng ng ng ng

Ёзма шакли: *Ng Ng Ng Ng Ng*
ng ng ng ng

ng (нг) ҳарфий бирикмаси ming (минг), yangi (янги), tong (тонг), teng (тенг), ko'ngil (кўнгил), dengiz (денгиз),

bo'shang (бушанг), kelsang (келсанг), bizning (бизнинг) каби сўзларнинг ўртаси ва охирида қўлланиб, саёз тил орқа, сонор, бурун товуши ng (нг) ундош товушини ифодалаш учун хизмат қилади.

1-машқ. Дафтарингизга ng (нг) ҳарфий бирикмасининг ёзма шаклини тўрт қатордан ёзинг.

2-машқ. Қуйидаги сўзларнинг ҳар бирини дафтарингизга уч қатордан ёзинг:

singil, tong, yalang, so'rsang, xarsang, bong, bo'shang

3-машқ. Матнни ўқинг.

TOLIBI ILM

"Ilm qilingiz tug'ilgandan o'lguncha" degan so'z jami odamlarga barobar buyruq bo'lsa ham, o'qimoqning bir yaxshi vaqti borki, u yoshlik va bolalik vaqtidir. Yoshlikda o'rgangan ilm toshga o'yilgan xatdek aslo hayoldan ketmaydi.

Ey shogirdlar, imkoni boricha yosh vaqtlaringizda o'qimoqqa jazm qilinglarki, oltin umr bekorga sarf bo'lmasin.

XXX " " тутук (апостроф) белгиси

Бу белги сўз ўртасидаги тутукни билдиради, айрим сўзларда унли товушларнинг чўзиклигини ёки унлининг ундошдан айириб талаффуз қилинишини билдиради.

Бу белги:

а) a'lo (аъло), da'vo (даъво), ba'zan (баъзан), ta'lim (таълим), ta'sir (таъсир), ta'zim (таъзим), e'lon (эълон), e'tibor (эътибор), me'mor (меъмор), she'r (шеър), fe'l (фeyл) каби ўзлашма сўзларда унли ҳарфдан кейин қўйилиб, шу унли товушнинг чўзикрок айтилишини ифодалайди;

б) Qur'on (Қуръон), in'om (инъом), san'at (санъат), bid'at (бидъат), sun'iy (сунъий), mash'al (машъал), mas'ul (масъул) каби ўзлашма сўзларда унли ҳарфдан олдин қўйилиб, шу унли товушни олдинги ундош товушдан ажратиб айтиш лозимлигини ифодалайди;

в) mo'jiza (мўжиза), mo'tadil (мўтадил), mo'tabar (мўтабар) каби сўзларда о' унлиси чўзикрок айтилса ҳам, тутук белгиси кўйилмайди;

г) рус тилидан олинган сўзларда ташланиб, бу белгидан кейин келган е, ю ҳарфлари ўрнига уе, уи ҳарфлари ёзилади. Масалан, razyezd, podyezd, adyutant, obyekt, subyekt каби.

1-машқ. Тутук белгиси (') унли товушнинг чўзикрок айтилиши учун кўйилган сўзлардан 10 та, унлини ундодан ажратиб айтиш учун кўйилган сўзлардан 10 та, бу белги кўйилмайдиган русча-интернационал сўзлардан 4 та топиб дафтарингизга ёзинг.

2-машқ. Дафтарингизга қуйидаги сўзларни кўчириб ёзинг ва уларнинг ёзилиши ҳамда айтилишини эсда тутинг: go'sht, do'st, uchastka, ma'yus, ta'sir, ta'b, me'mor, tole'.

3-машқ. Шеърни ўқиб, мазмунини таҳлил қилинг.

FARZAND

Bir kuni rahjitdi otani farzand,
Ota o'z uyidan bosh olib ketdi.
Lekin Alloh mehri bo'lib sarbaland,
Ota Makkatulloh vasliga yetdi.

Ota fig'on chekdi Ka'ba qoshida,
Go'yo unut bo'lgay alamlar bari.
Najot charx urisa ham farzang boshida,
Sira ketolmadi bir gapdan nari.

Ka'baga sig'inar ekan kekxa chol,
Armonin oshkora aytdi olamga.
Dedi: - Ibodatim bo'lsa ham uvol,
Faqat saodat ber o'sha bolamga!

(Abdulla Oripov).

АЙРИМ МУҲИМ ИМЛО ҚОИДАЛАРИ

Имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақидаги қарорда ушбу қоидаларга дастлаб лотин ҳарфларга асосланган ёзувда амал қилиниши таъкидланган. Демак, кириллча ўзбек ҳарфларига асосланган ёзувда аввалги қоидалар сақланади.

Алифбо алмашуви билан имлода қуйидагича ўзгаришлар юз берди:

1

I. I. ё, ю, я ҳарфлари ўрнига:

Бу ҳарф икки товушни ифодалаганда икки ҳарф ёзилади. ён-уон, юз-уюз, ях-уах каби.

2. Бир уялни кўрсатганда:

а) асосан бир ҳарф ёзилади: стажёр-стајор, люстра - lustra, фляга-флага, октябрь-октавр, сентябрь-sentabr каби;

б) сўзнинг талаффузи кескин ўзгариб кетмаслиги учун баъзан уо, уи, уа ҳарфлари ёзилади: боксёр-boksyor, бюро-byuro, славян-slavyan каби.

II. Айириш белгиси (ъ):

а) рус тилидан олинган сўзларда ташланиб, бу белгидан кейин келган е, ю ҳарфлари ўрнига уе, уи ҳарфлари ёзилади: разъезд-gazyezd, адъютант-adyutant каби;

б) арабча сўзларда тугуқ белгисига (‘) алмаштирилади: маъно-та’но, санъат-san’at каби (бу ҳақда юкорида кўпроқ тўхтаганмиз).

III. Юмшатиш белгиси (ь):

а) ҳозирги лотинча ўзбек ёзувида юмшатиш белгиси қабул қилинмаганидан барча юмшатиш белгиси (ь) ўзлашма сўзларда ташланиб, юмшатиш белгисисиз ёзилади: пальто - palto, альбом-albom, январь-yanvar каби;

б) айрим ўзлашма сўзларда айириш белгиси вазифасини бажарганда ҳам, у ташланади ва унинг ўрнига у (й) ҳарфи кўшилади: почтальон-roshtalyon, медальон-medalyon каби.

IV. Маълумки, Ц ҳарфи ҳозирги лотинча ўзбек алифбосидан чиқарилди, ҳарф сифатида киритилмади. Ц ҳарфининг ўрнига:

а) сўз охирида, сўз бошида олд кўшимчадан кейин ва ундодан кейин s (с) ёзилади: кварц-kvars, целлофан-sellofan, акционер-aksioner, циркуль-sirkul каби;

б) бошқа ҳолларда ундидан кейин ts (тс) ёзилади: глицерин-glitserin, конституция-konstitutsiya каби.

2

Кўпчилик сўзларга эгалик кўшимчалари:

а) -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -i(-si) ёки -lari шаклида товуш ортгирмай кўшилади: akam, akang, akasi, akamiz, akangiz, akasi (akalari): orzum, orzung, orzusi, orzumiz, orzungiz, orzusi (orzulari).

б) parvo, obro', mavqe, avzo сўзларига I, II шахс эгалик кўшимчалари кўшилганда, бир у (й) товуши кўшиб айтилади ва шундай ёзилади: parvoyim, parvoying, parvoyimiz, parviyngiz, obro'yim, obro'ying, obro'yimiz каби. III шахс эгалик кўшимчаси parvo, avzo, obro', mavqe сўзларига -yi (йи) шаклида, худо каби сўзларга эса -si (си) шаклида кўшилади: avzoyi, obro'yi каби (dohiy каби у (й) ундоши билан тугаган сўзларга ҳам II шахсда -si (си) кўшилади: dohiysi, vodiysi каби).

3

1. Жуфт сўздан кўшимча ёрдамида ясалган сўзлар чизикча (-) билан ёзилади: baxt-saodatli, xayr-xushlashmoq.

2. Жуфт сўз қисмлари орасида -u (-yu) боғловчиси келса, ундан олдин чизикча (-) қўйилади ва жуфт сўз қисмлари ажратиб ёзилади: do'st-u dushman, kecha-yu kunduz, ona-yu bola.

3. Етакчи ва кўмакчи феъл бир хил шаклда бўлса, чизикча (-) билан ёзилади: aytdi-qo'ydi, yozdi-oldi, bogasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman каби.

4

Сўзнинг -ma, ba- ёрдамида бирлашган қисмлари чизикча (-) билан ёзилади: ko'chama-ko'cha, gang-barang, dam-badam. Лекин мустақил ишлатилмайдиган қисм

қатнашса, бундай сўзлар қўшиб ёзилади: го'баро', darbadar каби.

5

1. -chi, -a (ya), -ki, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) юкламалари чизикча (-) билан ёзилади: sen-chi, sen-a, uka-ya, keldi-ku, qo'y-e, yashang-e, qizim-ey, keldi-yey каби.

2. -mi, -oq (-yoq), -ov (-vov), -gina (-kina, -qina) юкламалари ўзидан олдин келган сўзга қўшиб ёзилади: aytdimi? o'ziyoq, o'qiboq, kelganov, ko'rdiyov, kichikkina каби.

6

Тартиб сон араб рақамлари билан ёзилса, -nchi (-inchi) қўшимчаси ўрнига чизикча (-) қўйилади: 1997-yilning 1-sentabri, 6-sinf, 4- "A" sinfi, 60-yillar каби. Тартиб сонни кўрсатувчи Рим рақамларидан кейин чизикча ёзилмайди: XX asr, X sinf, XXIX tom каби.

7

Бир товушни кўрсатувчи ҳарфлар бирикмаси (sh, ch, ng) биргаликда кўчирилади: mai-shat, pi-choq, bichiq-chi, singil каби.

III ҚИСМ

III ҚОҒОЗЛАРИДАН НАМУНАЛАР

TARJIMAI HOL

Men, Ahrorbek Abdullayev, 1975-yil 3-sentabrda Namangan shahrida xizmatchi oilasida tugildim. Otam - Abdullayev Adham Namangan sanoat-texnologiya institutining dotsenti. Onam - Abdullayeva Sora - uy bekasi.

Men 1982-1992-yillar orasida Namangan shahridagi 7-orta maktabda o'qidim. 1992-yilda Namangan politexnika institutining (Toshkent filiali, hozirgi sanoat-texnologiya instituti) mexanika fakultetiga o'qishga kirdim. 1996-yilda shu institutni imtiyozli diplom bilan bitirdim. Mazkur institut iqtisodiyot kafedrasining iltimosiga ko'ra taqsimotda kafedra laboranti vazifasida ishda qoldirildim. Hozir shu joyda ishlab turibman.

Uylanganman. Xotinim - Abdullayeva Aziza, 1976-yilda tug'ilgan, shahardagi 33-bolalar bog'chasida tarbiyachi bolib ishlaydi. Hali farzand ko'rmaganmiz.

Mening turar joyim: 700008, Namangan, Navoiy ko'chasi, 16-uy, 34-xonadon.

(imzo) A.Abdullayev.

1997. 17. 01.



Namangan Davlat dorilfununi o'zbek
tilshunosligi kafedrasining katta o'qituvchisi,
1962-yilda tugilgan, millati o'zbek
Adiba Omonovaga

TAVSIFNOMA

Adiba Omonova 1979-yilda Chortoq shahar 1-orta maktabning 10-sinfini tugatgach, shu yilda mazkur dorilfununning o'zbek tili va adabiyoti fakultetining 1-kursiga o'qishga kirdi. Men ana shu yildan beri Adiba Omonovani zukko talaba hamda oliyjanob inson sifatida yaxshi taniyman. U universitetda tahsil olar ekan intizomli, ziyrak, iffatli, oqila va har tomonlama bilimdon talaba sifatida o'zini ko'rsatdi.

Adiba Omonova ayniqsa tilshunoslik faniga katta qiziqish bilan qarar ekan, o'z ustida qunt bilan ishladi, fan sirlarini chuqur o'rganishi natijasida dorilfununda har yili o'tkaziladigan talaba va o'qituvchilarning an'anaviy ilmiy-nazariy anjumanida muntazam qatnashib, imtiyozli o'rinlarni egallab turdi. Uning ilmiy maruzalari yosh olimlar uyushmasi tomonidan yuqori baholandi.

A. Omonova fakultetning jamoat ishlarida ham faol qatnashdi. U fakultet Qizlar uyushmasining raisi sifatida faollik namunasini ko'rsatgan. Adiba 1984-yilda mazkur fakultetni imtiyozli diplom bilan yakunlagach, o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchi, 1986-yil yanvaridan esa katta o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

Tavsifnoma O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tilshunoslik tadqiqot instituti ilmiy kotibiga topshirish uchun berildi.

Fakultet dekani:	(imzo)	dots. M. Yusupov.
Kafedra mudiri:	(imzo)	dots. T. Numonov.

(Muhr)

(sana)



Namangan shahar xalq talimi bolimi
boshligi Rano Azizovaga
Namangan shahar Oloqon ko'chasi-
dagi 38-uyda yashovchi
Kamola Ibrohimovadan

ARIZA


Meni Namangan shahar Hamza ko'chasida joylashgan
"Guncha" bolalar bog'chasiga tarbiyachi vazifasiga ishga
qabul qilishingizni so'rayman.

Arizamga Namangan davlat pedagogika instituti
(hozirgi universitet) pedagogika va maktabgacha tarbiya
fakultetining maktabgacha tarbiya bolimini tugatganlik
to'g'risidagi diplomning nusxasini (ko'chirmani) ilova qilaman.

(imzo)

K. Ibrohimova.

1996. 15. 08.



Namangan Davlat dorilfununi rektori
muhtaram prof. A. A. Azamovga
Namangan viloyat Kosonsoy tumanida
yashovchi Nargiza Bahromovadan

ARIZA

Menga shu dorilfununning fizika fakultetiga kirish
uchun test sinovlarida qatnashishga ruxsat berishingizni
so'rayman.

Arizamga shu yil 11-sinfni bitirganligim haqidagi
shahodatnomaning asl nusxasi, 286-shakldagi shifokorlar
korigidan o'tganligimni tasdiqlovchi hujjat, 3x4 hajmdagi 4
dona fotosuratimni ilova qilaman.

(imzo)

N. Bahromova.

1995. 10. 07.



MALUMOTNOMA

Janob Akram Hamidov Namangan Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida dotsent lavozimida ishlaydi. Oylik maoshi 1620 (bir ming olti yuz yigirma) so'm.

Malumotnoma 1-shahar turar joylar boshqarmasiga ko'rsatish uchun berildi.

Kadrlar bo'limi boshligi: *(imzo)* N. Rasulova.

Bosh hisobchi: *(imzo)* D. Abdurahmonov.

(muhr)



TAVSIYANOMA

Men Tohirjon Rahmonovni 1985-yildan buyon bilaman. U 1985-1989-yillar oralig'ida hozirda men ishlayotgan Namangan Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida o'qigan. Rahmonov talabalik yillarida o'zini har tomonlama yuksak madaniyatli ekanini ko'rsatdi. U ko'pgina ijobiy xislatlar egasi, o'zining ko'p vaqtini kutubxonada, kitob mutolaasida o'tkazar edi. Bunday qunt bilan ishlash o'z natijasini berdi. U yaqindagina (1995- yilda) nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Rahmonov bir necha marta turli mukofotlar olganini bilaman. U hozirda shu fakultetda dotsent lavozimida ishlab kelmoqda.

Men T. Rahmonovni O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi safiga o'tishga loyiq deb hisoblayman.

(imzo) Filologiya fanlari nomzodi O. Sharipov.

1995-yil 20-dekabr.

Shtamp ornini

sana

royxat.



Namangan Davlat dorilfununi bo'yicha

BUYRUQ

1996-yil 25 noyabr, 3-son

Namangan shahri

Universitetdagi professor-dqituvchilarning ilmiy-ijtimoiy jihatdan yetukligini, leksiya va amaliy mashgulotlar otkazish saviyasi egallab turgan o rinlariga mosligini aniqlash maqsadida fakultetlarda attestatsiya otkazish uchun

BUYURAMAN:

I. Barcha fakultetlarda attestatsiya otkazishda quyidagi muddatlar belgilansin:

1) Ozbek tili va adabiyoti fakultetida 1996-yil 1-dekabrdan 15-dekabrgacha;

2) Pedagogika va boshlangich talim metodikasi fakultetida 1996-yil 15-dekabrdan 1997-yil 1-yanvargacha;

3) Geografiya-biologiya fakultetida 1997-yil 2-yanvardan 15-yanvargacha;

4) Tarix fakultetida 15-yanvardan 1-fevralgacha.

II. Rejalashtirilgan attestatsiyani otkazish uchun quyidagi-

lardan iborat komissiya tuzilsin:

1) Hojimirzayev M. N.-rais (oquv ishlari bo'yicha prorektor);

2) Oripov A. O. - azo (oquv ishlari bo'yicha prorektor);

3) Rahimov N. - azo (ilmiy ishlar bo'yicha prorektor);

4) Rasulov A. - azo (kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi).

Buyruqni nazorat qilish ilmiy ishlar bo'yicha prorektor professor N. Rahimovga yuklatilsin.

Rektor:

(imzo)

prof. A.Azamov.



ISHONCH QO'G'OSI

muhr orni
26-fevral

1997-yil

Men, Abbasov Shavkat, yanvar oyi uchun beriladigan maoshim (ish haqim) 620 (olti yuz yigirma) so'mni hamkasbim Akbarov Ravshanning olishiga ishonch bildiraman.

(imzo) Abbasov Shavkat

Abbosov Shavkat imzosini tasdiqlayman.

Kadrlar bolimining boshligi: (imzo) B. Haydarov.



E'OLON

Fizika fakultetining 5-kurs talabalari uchun oliy matematikadan imtihonlar 25-fevral soat 12.00 da boshlanadi.

DEKANAT.



E'OLON

1997- yil 15-sentabr kuni soat 14.00 da universitet asosiy binosining majlislar zalida (1-A zal) universitet kasaba uyushmasi qomitasining hisobot-saylov yig'ilishi bo'ladi.

Kun tartibi:

1. Kasaba uyushmasi raisi T. Hamidovning hisoboti.
2. Uyushma taftish komissiyasining hisoboti.
3. Uyushmaning yangi tarkibini saylash.
4. Yangi taftish komissiyasi tarkibini saylash.

Kasaba uyushmasi tashkiloti.


TILXAT

Men, Namangan sanoat-texnologiya instituti tillar kafedrasining o'qituvchisi Abdurasulov Odil, viloyat kutubxonasidan bizning institutimiz uchun ajratilgan bahosi 8000 (sakkiz ming) so'mlik 200 (ikki yuz) dona Ruscha-inglizcha sozlashuv lug'atini oldim.

(imzo)

O.Abdurasulov.

1997-yil, 15-fevral.



IV KИICM

MUSTAQIL OQISH UCHUN MATNLAR

SUMALAK

SUMALAK - xushxó'r va tansiq taom. Sumalak tayyorlash uchun bug'doy tozalanib, sovuq suv bilan yuviladi. Song uch kun ivitib qóyiladi. Bug'doy nish gach, toza taxta ustiga 1-1,5 santimetr qalinlikda yoyilib, quyosh tushmaydigan joyga yoyiladi. Bug'doy unib chiqqanga qadar har kuni ertalab suv berib turiladi. Bug'doy maysasi igna bóyi bólgach, maysa qiymalanadi, ustidan suv quyib aralshtiriladi, sharbati dokadan suzib olinadi. Qozonda paxta yogi doglanadi, yoqqa un va birinchi suzilgan sharbat quyilib aralashtiriladi hamda baland olovda qaynatiladi. Songra ikkinchi suzilgan sharbat quyilib, baland olovda qaynatish davom ettiriladi. Sumalak tagiga olmasligi uchun qozonga 10-15 ta yong'oq yoki silliq toshchalar yuvib solinadi. Sumalak pishgach, qozonning olovi olinib, 2-3 soat davomida dimlab qoyiladi. Tayyor sumalak och jigar rang, quyuqligi ataladek, mazasi shirin bó'ladi.

(O'zbek taomlaridan).



NAQADAR

Qaragin osmonning yulduzlariga,
Naqadar gó'zaldir, naqadar chaqnoq.
Qaragin sen oyning yuz-ko'zlariga,
Naqadar dilbardir, naqadar porloq.

Nazar sol suvlarning jimirlariga,
Naqadar yoqimli, naqadar mavjli.
Quloq sol barglarning shivirlariga,
Naqadar xassosdir, naqadar avjli.

Qarasang-chi, tollar senga egilar,
Naqadar tazimkor, naqadar maftun,
Yuzingdan o'pay deb shabboda yelar,
Naqadar sargardon, naqadar majnun.

Ko'kraginga birpas qo'ysang-chi boshing,
Naqadar oshiqman, naqadar intiq.
Sen qalbimni tingla, men silay boshing,
Naqadar sevaman man seni qattiq.

(Muzaffar Ahmedov).

Har oila baxtining mezoni - farzand,
Ota ham onaga mehribon dilband.
Bosa olmas jujuqlar ornini, bilsang,
Olam xazinasin bersalar harchand.

(Maqsud Shayxzoda).

NINACHI

Dunyoda eng ko'p ovqat yeydigan jonivor qaysi ekanligini bilasizmi? Siz ehtimol sher yoki yo'lbars deb dylarsiz. Boshqa birovlar ayiq yoki bo'ri deb hisoblar. Bazilar ko'p ovqat yeydigan jonivorlar qatoriga filni ham qoshishr. Ammo bularning birortasi ham to'g'ri emas.

Dunyoda eng ko'p ovqat yeydigan jonivor ninachidir. U ikki soat ichida qirqta pashshani va chivinni tutib yeydi. Agar uning gavdasi sher yoki fil kabi bo'lganda edi, birdaniga bitta

sigirni yeb tugatgan boʻlur edi. Bitta ninachi shuncha zararli hasharotni yoʻq qilsa, oʻnlab, yuzlab ninachilarning tabiatga, odamlarga qanchalik foyda keltirishini tasavvur qilish mumkin. Bu bilan ninachi tabiat sanitari vazifasini bajaradi. Tabiatda ninachiga, oʻxshagan foydali jonivorlar koʻp. Ularni asrash hammamizning vazifamizdir.

(M. Mahmudov).

XAT CHIROYLI BO'LSA KO'NGIL OCHAR

Ey elig, xat yozishda loyiq boʻlgilik odam qol ursin. Boshliqning oʻzi qanchalik dono boʻlmasin, u kotiblarsiz ishini bitira olmaydi. Kotiblar har qanday yashirin soʻzlarni ham eshitishga loyiq odamlardir. Kotiblar yashirishning uddasidan chiqmas ekan, siri fosh boʻlgan odamning joni ortanadi. Soʻzni hamisha sir saqlash joiz. Saqlanmagan soʻz oʻlinga yondashtiradi. Kishining oʻgʻzi oʻraga qiyos. Soʻzlar yerga sochilgan urug doniga oʻxshaydi. Agar ogʻizdan chiqqudek boʻlsa, ularni bittalab terib olish mumkin emas. El-yurt eshitganidan keyin bu soʻzlarni pardalab boʻlmaydi.

Shirin va ezgu soʻzlar oqib turgan zilol suvga oʻxshaydi. Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerdan anvoyi chechaklar unib chiqadi. Shuning uchun ham kotibning oʻzi dono, xati xush, sdzi goʻzal boʻlsin.

(Qutadgu biligidan).

DUO NIMA?

Duo ibodat turlaridan biri boʻlib, u inson bilan Allohning orasini bogʻlaydi. Duo insonga qoʻshib yaratilgan. Inson

hayotidagi hodisalar qarshisida ojiz qolganda duodan ozga suyanchiq topa olmaydi. Shuning uchun ham Alloh taolo musulmonlarni duo olishga buyurgan. Axir Alloh duoni ibodat deb atagan-ku! Kimki undan kibr bilan yuz ogirsa, Allohning gazabiga uchrashini eslatib otgan.

Duo koggina kasalliklarning davosidir. Inson tabiati shundayki, ozining qalbidagi dard-u hasratini eng yaqin dostiga tokib solib, qaygu-alamini yengillatgisi keladi. Ruhii kasallik, tabiblarning takidlashicha, koggina asabii, ruhiy alamlarning tuzalishi shu alamlar sababini bir yaqin dostga oshkor qilish bilan bolar ekan.

Hasrat birovga aytmay, yashirib yurilsa, dard ziyoda bolar ekan. Agar inson oz qaygusini parvardigoriga aytsa-chi? Undan yordam sorasa-chi? Albatta, bu vaqtda uning qalbi osoyishtalik bilan toladi, qaygu-alamlari kotariladi. Chunki imoni unga Alloh sen bilan birga, undan bir narsani sorasang, albatta soraganingni beradi, - deb turibdi-da.



MUALLIM

Biz uni muallim der edik. Boyi baland, ozgin, doim toza kiyinib yuradigan bu odam menga birinchi kuniyoq insoniylikning eng oliy namuusi bolib koringan. Uning poyabzali yomgirli, loyli kunlarda ham. changli-tozonli kunlarda ham top-toza turar edi. Goyo u sinfga yurib emas, uchib kelganday. Biz yigirma yetti oquvchi loyga botgan, rangi-royini tanib bolmaydigan poyabzallarimizni tanaffus boshlanishi bilan undan uyalganimizdan tozalashga tushar edik. Bazan oylab ketardim. Muallim ham non yermikan? Bu mening tasavvurlarim, albatta. Bazi oqituvchilar oquvchilarning koz ongida chekar, ichar, qopol sozlar aytar, umuman, kimligini unutar edi.

Bizning muallimimiz esa osha bola xayollarimizning masumligiga qorishiq holda qoldi. U dars berar edi, shu bilan birga, bizni odamiylikka tayyorlar, tarbiyalar edi. Biz maktabga qoshiq aytib kelib, qoshiq aytib ketar edik.

(Zulfiya Mominova).



HAZRAT LUQMON HAKIMNING NASIHATLARI

Paygambarlar Xudo elchilaridir,
Haqiqat yolining boshchilaridir.
Paygambarlarki, Quron ichra kelmush,
Aniq bilgil, yigirma sakkiz ermush.

Bularning birlari hikmatli Luqmon,
Kelibdur nomiga bir syra Quron.
Xudo Quronda keltirdi sozini,
Atabdi otini maqtab ozini.

Ul aydi sakkiz ishni kim qilodur,
Tamomi yaxshilik qilgon bolodur.
Bayon aylay bu sakkizning barini,
Tugub kongilda, yod et har birini.

Birinchi tort chog, tort ishni saqla:
Namozda konglingni, sozda tilingni,
Yemak-ichmakda asra halqumingni.
Kirar bolsang birov uyiga, ey yor,
Alanglab boqmagil har yoqqa zinhor.

Bu tortni aytib otdim, yod qilgil,
Paygambarlar ruhlarini shod qilgil.
Yana tort narsa ayturman, quloq sol,
Isirgadek qulogingga taqib ol.

Xudoni yod qil, hargiz unutma,
Olimni ko'zda tut, gaflatda qolma.
Jahonda ikki ishni san unutgil:
Biri - qilsang birovga yaxshilikni,
Unutgil, sozlama hech qilganingni.
Ikkinchisi - kim yomonlik qilsa, ey yor,
Unutgil, saqlama konglingda zinhor.

Bu sakkiz ishni qilsa har musulmon,
Bolar jannatga loyiq - hukmi Qur'on.
Buni nazm etguchi Soguniy ojiz,
Oqiganda oni yod aylagaysiz.

(Alixontora Soguniy).



AQLLI VA TADBIRSIZ ODAM

Aqlli odamlar hamisha hushyor boladilar, hodisalar jilovini oz qollarida saqlab, xavfli girdobga tushmasdan sohilga yetib oladilar.

Tadbirsiz odamlarga kelsak, ular ikkilanadigan, jasoratsiz, tez-tez oz fikrlaridan qaytadigan boladilar, biror hodisa roy berganida, ular ozlarini yoqotib qoyadilar. Oz baxtlarini saqlab qolish qobiliyatidan mahrum bolganlaridan oh-voh qila-qila, ozlarini har yoqqa uradilar. Uch baliq hikoyasidagi kun ularning boshiga keladi:

- Naql qilibdurlarki, yoldan uzoq, otqinchilardan holi bir yerda kol bor edi. Unda uch baliq yashar edi. Bulardan ikkisi tadbirkor, biri esa xom va tajribasiz edi. Kunlarning birida tasodifan ikki ovchi kol yonidan otib qoldi, ko'zlari uchta baliqqa tushdi. Ular ertaga kelib uchala baliqni tutishga vadalashib jonab ketdilar. Baliqlar ularning sozini eshitgan edilar. Ulning biri tadbirli bolib, zolim zamonaning zulmi va

gaddor falakning vafosizligini korgan, aql va tajriba orttirgan edi. U darhol ehtiyot chorasini korib, suv kelar tarafdin chiqib boshqa kolga borib oldi. Kop vaqt otmay baliqchilar kelib, suvning kirar va chiqar tomonini mahkam bekitdilar. Birinchi baliqqa nisbatan tajribasizroq, lekin aql va farosatdan mahrum bolmagan ikkinchi baliq vaziyatni korib shunday dedi:

- Fursatni qoldan berdim. Endi tadbir va hiylani ishga solish payti keldi, Tipirchilab u yoq-bu yoqqa qochgan bilan foyda yoq. Umidsizlikka tushmay najot yolini axtarmoq kerak.

Shunday deb baliq suv yuziga qalqib chiqdi va ozini olganga solib yotdi. Bir baliqchi uni olib, olgan gumon qildi va suv chiqib ketadigan ariq boyiga tashladi. Baliq sudrala-sudrala oqar suvga tushib oldi, hiyla ishlatib oz jonini qutqardi.

Xom va tadbirsiz baliq esa ozini yoqotib, u yoqdah-bu yoqqa qochib yurar, goho suv ostiga shongib, goho yuzaga chiqar edi. U oqibat baliqchilar toriga ilindi.

(Kalila va Dimnadan).

QOBIL BILAN HOBIL QISSASI

Qobil va Hobil Odam alayhissalomning farzandlari bolib, Alloh taolo mominlar bundan ibrat olsinlar degan maqsadda ular qissasini Quroni karimda zikr qilgan.

Qobil qalbi xasta, yomonlikka moyil, tama va gunohga intilivchi, Haq hukmiga unamay, sarkashlik qiladigan inson edi. Uning ukasi Hobil esa Haqqa boysunuvchi, solih, taqvoli edi. Qobil bilan Hobil ortasida paydo bolgan ixtilof yaxshilik bilan yomonlik ortasidagi kurashdir. Ular ortasida ixtilof paydo bolishining sababi haqida quyidagi rivoyat keltirilgan. Rivoyatda aytilishicha, Hobil qoychilik bilan, Qobil esa dehqonchilik bilan mashgul edi. Ulardan har biri ozidagi bor narsani Alloh yoliga qurbonlik qilishga jazm etdi. Hobil

qoylarning ichidan eng yaxshisini qurbonlikka tanladi. Qobil esa qurbonlik uchun sifati eng past bugdoydan ajratdi. Va har ikkalasi ham Allohga atagan qurbonligini bir joyga qoydilar. Shunda osmondan ot tushib Hobilning qurbonligini qabul etib, Qobilning qurbonligini qabul etmaganligi uchun unga nisbatan hasad qilib, oz ukasini oldirdi.

(Hadisdan).

RUXSAT SO'RASH VA SALOMLASHISH ODOBI

Har bir odamning oziga yarasha odobi bor. Islom joriy qilgan odoblardan biri ruxsat sorash va salomlashishdir. Bu ikki narsa hozirgi kundagi madaniyatli xalqlar amalga oshiramiz deb urinayotgan odatlardandir. Islom esa bu qadriyatlarni bir necha asr avval bayon qilgan.

Ey imon keltirganlar, oz uyingizdan boshqa uylarga ruxsat soramay va salom bermay kirmangiz. Ruxsat sorab, salom berib kirishlik ozingiz uchun yaxshidir. Shoyadki, buni eslasangiz. Agar sizga orqaga qaytingiz deyilsa, qayting. Shunday bolgani siz uchun yaxshi. Alloh barcha qilayotgan ishlaringizni bilib turuvchidir.

Islom ruxsat sorash va sa'om berishni shariatga kiritgan bolsa, boshqa tarafdin salomga alik olishni ham buyuradi. Chunki salomga alik olmaslik kishilar ortasida adovat qozgatadi. Islom salomga javob berish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki javobni afzalroq qilib berishga buyuradi:

Agar sizga salom berilsa, siz undan yaxshiroq javob bering. Yoki xuddi ozidek qilib javob qiling.

(Nur va Niso suralari asosida).

ONALARNI E'ZOZLAR ZAMON

Bazi yoshlar ortasida onani mensimaslik hollari onda -sonda bolsa ham uchrab turadi. Ular onalaridan maslahatsiz, bilganlaricha ish tutadilar. Mabodo ona aralashsa, Sizning aqlingiz yetmaydi, Siz qari odam nimaga tushunar edingiz,- deb yuborishadi. Bundaylarga: Hoy farzand, senga aqlni, farosatni kim bergan ozi? deging keladi. Qari bilganni pari bilmaydi,-deydi xalqimiz. Darhaqiqat, bu hikmatda katta mano bor. Turmush mashaqqatlaridan chiniqqan, hayot imtihonlaridan otgan qari onalarimiz bilan maslahat qilingan ishlar rejali, xosiyatli boladi.

Ona - muqaddas! Ona - aziz va motabar siymo. Ona - uluglik, gozallik, donolik timsoli. Ona - hayot chashmasi, ana shu chashmadan farzandlar butun ezgulikni, oliyjanoblikni, umuman, insoniylikni simirib chanqoqlikni qondiradilar. Onalar haqidagi donolar fikri, hikmatlar asilar osha insoniyatning ana shu ulug siymolarga hurmati ramzi sifatida sayqallashib kelmoqda.

(Musoqul Usmonov).



IMOM A'ZAM HAQIDA

Rivoyat qilishlaricha, Kufaning qoylari ichiga bir zulm bilan olingan qoy qoshib yuborilgan edi. Alloma bundan xabar topib qoychilardan soradilar:

- Qoy necha yil umr koradi?

Javob berishdi:

- Yetti yil.

Imom Azam yetti yil qoy goshti yemadilar. Va shu yillar orasida bir sarbozning qoy goshti yeb, ortganini ariqqa tashlaganin koradilar. Song uzoq vaqt baliqni ham ogizga olmaydilar.

Bu naql bizning zamonda, ozini musulmon sanab yurganlar ham bironing haqidan qorqishni unutayotgan ayyomda ayniqsa etiborga molikdir. Bizning Imom Azam mazhablariga mansubligimizni tilimizdagi davolarimiz emas, halolu haromni farqlashimiz, mardum haqidan qorqishimiz, u kishi kabi etiqodda sobit hayot kechirishimiz belgilaydi.

Imom ustodlarini ota-onalari bilan teng qoyardilar. U kishi biror marta ustodlarining uylari tomonga oyoq, uzatib otirmagan ekanlar, holbuki, ustodlarining hovlilari yetti mahalla narida edi.

Imom Azam shogirdlariga benihoya mushfiq, gamxor va mehribon edilar. Itifoqo, bir shogirdlari baland joydan yiqilib, qattiq azob chekib, faryod soladi. Ustod masjiddan yalangoyoq chiqib, uning hovlisiga yetib boradilar va: Agar inakoni bolsa, uning ozorini ozinga olur edim,- deb boshida yiglab otiradilar.

Yoqub Ahmadjon.



YAXSHILIK

Insondagi har bir tuhfa - koʻz, quloq, til, yurak, aql-zakovat yaxshilik uchun yaratilgandir. Biz ularni tinmay ishlaryapimizmi, demak, ularning zakotini tolashimiz kerak. Zakot - bu sizdan hech narsa sora olmaydiganlarga qaytimini kutmay yaxshilik ulashish. Agar shu zakoni tolamasak, kelimizni ozgalarga ziyon keltirishga majbur qilsak, bizga nasib etgan bu nematlar bir kuni, albatta xunini soraydi. Baxtsizlik, kulfat hech qachon chetdan kelmaydi, biz uni oz kelimiz bilan yasab olamiz.

Ishingiz ongidan kelavermayptimi, demak, birovlariga qilgan baxilligingiz uchun javob beryapsiz.

Uyingizga ketma-ket kulfat yogilib qoldimi, bilingki, dilozorlik qilganingiz uchun qaytimini olyapsiz.

Kingadir qasd qilish payiga tushdingizmi, demak, eng yaxshi ko'rgan kishingizning qaysidir yo'li bog'lanadi.

Topgan molingiz o'zingizga buyurmadimi, ayon bo'ldiki, uyingizga tama' harom aralashgan.

O'z manfaatingiz yo'lida birovga ig'vo, xiyonat qildingizmi, shubhasiz, ma'lum bir fojia sizning xonadoningiz sari yura boshlaydi.

Siz birovga birgina boshingiz bilan yomonlik qilasiz, kulfatini esa butun oilangiz, ko'pincha esa eng yaxshi asragan, yaxshi ko'rgan kishingiz tortadi.

Hadisi sharifda shunday yozilgan: Odamlarga nisbatan yomonligingni to'xtat, shu o'zingga sadaqa bo'ladi.

Paxtning kalidi YAXSHILIKDIR.

Yaxshilik qilgan sari kishi poklanib boraveradi. Poklangan sari mushkullari osonlashib, niyatlari ushalaveradi.

(Tursunoy Sodiqova).



SALOMLASHISH VA YO'LDA YURISH ODOBI

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom o'rtalaringizda salomni tarqatingiz, o'zaro muhabbatingiz oshadi, - deb marhamat qilganlar. Salom nima? Bu birodari bilan uchrashganda unga Assalomu alaykum deb murojaat qilishdir. Buning ma'nosi men sizga tinchlik va omonlik tilayman. Sizga mening tarafimdan hech qanday zarar yetmaydi demakdir.

Shunday ekan, murojaat qilinayotgan kishi eshitmagan taqdirdagina qo'lini ko'krakka qo'yib, ishora bilan salom berishi joiz, qolgan hollarda esa albatta eshittirib salom berish kerak. Islom shariatida engashib salom berish qat'iyman' etiladi.

Xonaga kirgan xonadagilarga, yurgan o'tirganlarga, otliq piyodaga, kichik kattaga, ozchilikning ko'pchilikka salom berishi to'g'ridir.

Qo'l bilan so'rashganda, barmoqlar bilan emas, kaftni kaftga qo'ymoq kerak. Uzoq ko'rishmaganda quchoqtashib ko'rishish ham dinimiz odobi.

Uchrashilganda salom berish nechog'lik zarur bo'lsa, ajrashilganda ham salom berish shunchalik lozimdir. Kamtarona va ohista yurish musulmonlarga xosdir. Shuning uchun shoshilib yurish yaramaydi. Yo'lda yurilganda yo'ning odamlarga zarar yetkazuvchi narsalardan tozalash ham mo'minlarga munosib fazilatdir. Ikki kishining o'rtasidan, xususan, ikki ayolning o'rtasidan o'tish odobsizlikdir.

Adashib qolganlarga yo'l ko'rsatish, mazlumlarga yordam berish lozim.

(Islom asoslaridan).



ANOR

Anor qirmizi, rangpar, oq, qizil durdona totimli, shifobaxsh mevadir. Vatani O'zbekiston bo'lib, Quva (Qayqubbo) dan atrofga tarqagan. Tishlarni mustahkamlaydi. Bargi yirik, qalin, yaltiroq, jiloli, tuxumsimon, shoxlari qisqa bandli, qarama-qarshi joylashadi. Urug'i serob, o'zi sershira, donador, har bir donasi bir dunyodir.

Yaxshi xislati shuki, yurakka orom beradi. Har qanday kasallikka davodir. Po'stlog'i chillashirni tuzatadi. Qo'tir, yo'tal, ichburug', sariqqa shifodir. Sharbati esa ishtaha ochadi. Qaynatsa og'iz bo'shligini yallig'lanishdan saqlaydi va anginani davolaydi. Temir moddasi ko'p. Mevasidan turli shifobaxsh qiyomlar tayyorlanadi. To'rt kilogramini olib, ikki kilo shakar, yarim piyola rayhon guli aralastirib qaynatilsa, darmondori bo'ladi. Olma, behi, limon, otquloq, oshqovoq, nilufar,

kashnichga aralashtirib, asal bilan iste'mol qilinsa, kuch bag'ishlab, safro, qusish, ko'ngil aynig'ini shartta to'xtatadi.

Mavlono Abu Ali ibn Sino anorning po'stini qon tupurganda, milkdan qon oqqanda, me'da kasalliklarida, tishni mustahkamlashda, yaralarni va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llagan.

Xalq tabobatida po'stlog'i, mevasi, mevasining po'sti va guli istisqo, qo'tir, yo'tal, dizenteriya (ichburuq), sariq kasalliklarida hamda to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Mevasining shirasi zangila kasalligida buyuriladi. Ishtaha ochish uchun ham ichiladi.

(I. To'xtasinov).

OTA QADRI

Alqissa, farzand otasiga neki qilsa, farzandlaridan o'ziga ham shu narsa qaytadi. Ey farzand, otangga yaxshilik qilmoq qo'lingdan kelmasa, unga bir yaxshi so'z ayting, - deyishgan bobolarimiz. Ba'zan bugun o'z padari buzrukvoriga yaxshilik ko'rsatmoq u yoqda tursin, iliq gap deguvchilar ham kamayib ketganini ko'rib dahshatga tushasan kishi. Ota so'zi qonun deyдилar. Endilikda otaning qadri yo'qoldi deyishga tilim ham bormaydi. Mening ojiz fikrimcha, farzandlarning otaga munosabatini yaxshilamoqning ko'p jihati onaga ham bog'liqdir. Agar oilani katta bir kema deb olsak, ota unda mohir eshkakchidir, u oilani ustalik bilan xavf-xatardan olib o'taveradi, Kema ichida esa ona va bolalar o'tiribdi. Demakki, og'il va qizda mehr-muruvvat, otaga hurmat hissi kamol topsa va bunga ona sababchi bo'lsa, unday oilaning baxt-saodat topishi muqarrardir. Bolalar, ota-onangizni doimi hurmat qilinglar.

(M. Zokirov).

YAXSHILIK MEVALARI

Mana, Navro'z keldi. Alloh osmondan tinmay rahmat yog'diradur: dov-u daraxtlarda shoda-shoda zumrad marjonlar, ona zamin xamirday ko'pchib turibdi. Dimog'ingizga jannatiy uforlar uriladi. Bu manzarani ko'rmoq va his qilmoq qanchalik BAXT!

Ariqdan olingan bir ketmon loy ham, o'tqazilgan bitta ko'chat, asfalt qilingan bir quloch yo'l, oqlangan bitta uy ham, marhumlar uchun chiqarilgan is bola-chaqamiz, qolaversa o'z jonimiz uchun qilingan sadaqadir.

Umr charxpalakdir, tinmay aylanaveradi. Dunyodan rohat olib yashash va dunyoni ham yashartirib qolishga shoshilmoq kerakdir...

Bugun ellik yoshdasiz. Yarashib turgan mana bu ko'ylagingiz ertaga yarashmay qolishi mumkin. Bugun libos yarashgan ellik yoshingiz bilan yayrab oling.

60 yoshingizdagi bugungi oyoqlaringiz ertaga uzoqqa tortolmasligi mumkin. Boradigan joylaringizga borib, ko'radigan odamlaringizni ko'rib qoling.

70 yoshingizdagi bugungi so'zlaringizni saksoningizda topolmay qolishingiz mumkin. Til'ingiz bilan bugun ko'ngillarni yashnatib, shirin suhbatlar qurib qoling. Inson yoshining har bir daqiqasi bebaho boylkdir. Har bir yoshingizning kuni ertaga armon bo'lajak.

Aziz insonlar! Har birimiz bir daraxtmiz. Tomirlarimiz jismimizdan o'sib chiqqan novdalarimizdir. Shu novdalar yaxshilik kurtaklariga to'lib kersin! Butun jismimiz Yaxshilik gullariga cho'milsin! Bir-birimizga yaxshilik mevalarini ilinib yashaylik!

(Tursunoy Sodiqova).



V ҚИСМ

ЛУҒАТ ВА НАЗОРАТ ДИКТАНТ УЧУН СЎЗЛАР ВА МАТНЛАР

Диктантларнинг барчаси таълимий хусусиятларга эга бўлган бўлса ҳам, лекин маълум бир мавзунинг ўтишгандан сўнг, шу мавзунинг ўқувчи қанчалик ўзлаштирганини синамоқ учун таълимий ва назорат диктанти ўтказилади. Таълимий диктант ичида луғат диктант тури кўп вақт олмаслиги, ихчамлиги билан фарқ қилади. Шунинг учун ҳар бир мавзунинг ўтишгандан сўнг янги дарсни мустаҳкамлаш учун луғат диктантидан фойдаланиш мумкин. Луғат диктант учун дарснинг 7-8 минути ажратилади. Луғат диктант ўқувчига маълум сўзларнинг қандай ёзилишини эмас, балки шу сўзнинг ўзини, унинг маъносини ҳам ўргатади.

Назорат диктанти эса ўрганилган қондаларни ўқувчилар қанчалик ўзлаштирганини, бу қондаларни амалда қанчалик тадбиқ қила олишларини назорат қилиш учун ўтказилади.

ЛУҒАТ ДИКТАНТЛАРИДАН НАМУНАЛАР

“А” ва “О” ҳарфларининг ёзилиши

Sanoat, sabzavot, tabiat, ozuqa, beton, davo, insoniyat, qayiq, jiyda, bosim, bosh, shamol, aql, asal, olam, onajon, qovoq, karam, shart, salom, son, oddiy, oldi.

L ва “U” ҳарфларининг ёзилиши

Lug'at, bulbul, tuxum, burgut, qovun, tarvuz, pomidor, qiyg'os, uzum, uzuq, unum, qoshiq, suyuq, nihol, gilos, qarich, qovurg'a, qayg'u, munozara, mavsum, gulduros, mushkul, sovuq, mulohaza, musobaqa.

“E” va “Ye” xarfklarining ёziliши

Yengil, egri, ena, yengli, yelpindi, ber, ter, mehmon, el, eng, erimoq, tebranmoq, erta, elak, chehra, ekin, mezbon, sedana, elektr, metro, meros, mergan, tebranmoq

“O” xarfklarining ёziliши

Mo'min, ko'mir, mo'yna, bo'g'in, o'rim, o'ttiz, mo'ljal, ko'ngil, no'xat, po'lat, po'stloq, bo'lak, o'simlik, ro'yxat, ro'za, ro'mol, go'zal, so'zana, bo'ston.

“V” va “D” xarfklarining ёziliши

Odob, arbob, ertalab, kitob, yor, kabob, niqob, nobor, sarob, noyob, sotib, dard, kasalmand, band, qasamyod, obod, murod, maqsad, ziyod, dengiz, daraxt.

Kўsh undosh xarfklarining ёziliши

Quvvat, pashsha, shamollash, taraqqiyot, kasallik, yallig'lanish, minnat, Muyassar, yovvoyi, modda, Munavvar, barkamollik, ziddiyat.

Кетма-кет келган хар хил undosh xarfklarining ёziliши

Mug'ombir, mulk, muhr, to'rt, naqd, sabr, rostgo'y, rukn, sezgir, sezdi, tanho, sarv, tarjima, tandir, girdob.

“P” va “F” xarfklarining ёziliши

Vafo, foyda, piyoda, do'ppi, jafо, ittifoq, kampir, kapalak, ko'pik, ko'prik, likop, mukofot, poxol, poema, sifat, farishta, fido, safsar, zafar.

“X” va “H” xarfklarining ёziliши

Axloq, ahl, ahd, baxt, jihoz, baxmal, baxsh, jo'xori, behi,

dodxoh, zahar, ilhom, ixtiyor, Tohir, xalq, taxta, to'xta, isloh, majhul, mazax, do'zax.

HAZOPAT DIKTANTLARI HAMUHALAR

AQL HAQIDA

Inson tanasidagi sog'lom aql eng kichik vujudga jamuljam bo'lgan beqiyos suyuqlikdir.

Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, unday ilm va hunar o'z egasini har doim qo'llab-quvvatlaydi. Agar ilm va hunar ruhga tarbiya bermay, tanni semirtirib, orzu-havasni ko'paytirib, nafs shaytonga yordam beradigan bo'lsa, unday ilm va hunarlar egasining ofatidir.

(Ahmad Donish).

Yaxshi xulq va aqlning kuchi birgalikda insoniy fazilat hisoblanadi. Har bir insonning yaxshiligi uning o'zidagi hamda harakatlaridagi ustunlik va murakkablikdir... Agar ularning ikkalasi mavjud bo'lsa, biz o'zimiz ham, harakatlarimizda ham ustunlikka va barkamollikka, oliyanoblikka, ezgulikka va saxovatchilikka erishamiz. Bizning hayot tarzimiz ana shunda yaxshilik va maqtovga loyiq bo'ladi.

(Forobiy).

Aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat va ruhiy kuch bilan bog'liqdir.

(Forobiy).

KIYIM

Kiyim inson badanini iqlim, ob-havo o'zgarishlaridan, quyosh nurlaridan, turli tashqi ta'sirlardan asrash uchun kiyiladi. Ibtidoiy odamlar hayvon terilari, daraxt پوستloqlari va barglaridan kiyim sifatida foydalanganlar. Asta-sekin odamlar yovvoyi o'simlik tolasidan ip yigirish, dag'al mató to'qish, undan kiyim tikishni o'rganishdi. Dehqonchilik, chorvachilik, ipakchilik rivojlana borgach, paxta singari madaniy ekinlar tolasidan, uy hayvonlarining jumi, terisi, mo'ynasidan, ipak qurti o'raydigan ipakdan ip yigirib kiyimlar tikishdi. Xalqlarning madaniyati oshib borishi bilan kiyimning turlari

ko'paydi. Yangi kiyimlar yaratildi, har bir xalqning o'ziga xos kiyim-boshi - milliy kiyimi paydo bo'ldi.

(“U kim, bu nima?” ensiklopediyasidan).

HAYVONOT BOG'IDA

Yakshanba kuni dadam, ukam va men hayvonot bog'iga bordik. U yerda turli hayvonlar, xilma-xil qushlar, ko'plab baliqlar va boshqa jonivorlarni ko'rdik. Biz ulkan hayvon deganda faqat filni bilardik. Begemot ham juda katta hayvon ekan.

Tuyaqush qush bo'lsa ham, faqat yerda yashar ekan, sira ham uchmas ekan.

U yerda cho'milayotgan oq ayiqni, chiroyli patlarini yoyib ko'z-ko'z qilayotgan tovusni, katakning u boshidan-bu boshiga yugurib, sakrab yurgan maymunni, uxlab yotgan sherni ko'rdik.

Dadam ayrim jonivorlar haqida qiziqarli hikoyalar ham aytib berdi. Biz hayvonot bog'idan xursand bo'lib qaytdik.

(N. Mahmudov).

SARISHTALIK - NOYOB FAZILAT

Uy tartibi, intizomi, saranjomligi, asosan, oila bekasining zimmasida bo'lishi tabiiy. Bunga e'tiroz yo'q, lekin oilada zahmatkash onadan boshqa hech kim yo'qmi? Nahotki, hamma ishni oila bekasiga tashlab qo'yilsa. Bu vijdon burchidan faqat qo'lidan ish kelmaydigan kichkina bolalar-u qarilargina ozod, xolos. Supurgi hamma vaqt bir yerda tursin! Pichoq, sanchqi, qoshiq, taqsimcha, lagan, kosa, xullas, shularga o'xshash narsalarni doimo tayinli joyga qo'yinglar. Qaychi, ip, tugma iplarini hamma vaqt bir joyda saqlang, olib ishlatgandan keyin yana joyiga keltirib qo'ying. Ko'zga xunuk narsalarni ko'zdan qochirishga harakat qiling. Yana bir oilalarda oshxonadagi idishlari yuvilmagan, pashsha bosib yotadi, qani endi parvoyiga kelsa?! Bolalar! Bilib qo'yinglar, har qaysi inson saranjom, toza, tartibli bo'lishi kerak!

(Mirzakalon Ismoilij).

BIBI MUSHKULKUSHO

O'zbek va tojik ellarining asotirlariga ko'ra, kishilar biron-bir baxtsizlikka duchor bo'lganlarida Bibi Mushkulkushodan imdod so'rab, yolvorishgan, shunda mushkullari kushod bo'lgan, ya'ni g'am-tashvishdan qutulishgan. Aytishlaricha, bir kambag'al chol o'tin terib yurib o'rog'ini yo'qotib qo'yibdi, uni qidirib, g'or ichiga kirib qoladi. Bu g'orda Mushkulkusho yasharkan. Chol unga voqeani aytadi. Shunda keksa ayol: "Agar har haftaning chorshanba kuni mening sharafimga elga taom ulashsang, o'rog'ing ham topiladi, o'tining ham mo'l bo'ladi",- deydi. Chol uning aytganlarini qiladi, ammo bir chorshanba Bibi Mushkulkushoning so'zlarini unutadi, shunda yana boshiga kulfat tushadi. Kelasi chorshanbada u gunohini yuvadi, shunda yana o'tiniga baraka beradi.

Bibi Mushkulkusho to'g'risidagi mazkur asotir yillar davomida aytilmay kelindi. Bu nuroniy ayol Hazrat Bahouddin Naqshbandiy zavjasi emish.

BO'LAJAK HAMSHIRALARGA

Aziz zamondoshim! Sen bugun insoniylik g'oyalariga sodiq qoluvchi fidoyilar safiga o'tmoqdasan.

Sharafli va faxrli kasb egasi - "Mehr-shafqatli hamshira" degan nomga muyassar bo'lishlik sendan aql-u odob bilan ish tutishni, samimiy, mehribon, tashabbuskor, hozirjavob, muloyim, shirin so'z, bemorlar dardiga hamdard, g'amlariga sherik bo'lishni talab etadi.

Bilib qo'y! Bemorlarning tezroq sog'ayib ketishi sening o'z kasbingga mehr qo'yib, samimiy va sidqidildan yordam berishingga bog'liq. Bu sermashaqqat yo'lda senga, do'stim, omad hamrohing, vijdon maslahatgo'ying, umidvorlarga hayotbaxsh ko'zing, shirin so'zing, iliq tabassurning, samimiy suhbating doim madadkor bo'lsin.

Safga kirganing bilan, "Mehr-shafqatli hamshira" degan faxriy kasbga, nomga ega bo'lganing bilan tabriklaymiz, ey hamshira!

(Jurnaldan).

Мунираҳон Муҳаммадиева

Лотинча ўзбек алифбосини ўрганамиз



**Мазкур методик қўлланма IBM компьютерида терилиб,
проф. О. Носиров томонидан тажриба тариқасида саҳи-
фаланди.**

